2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 242 (1841), 2026-yil 21-noyabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘Z KUCHIMIZ, O‘Z IQTISODIYOTIMIZ, O‘Z MA’RIFATIMIZ: PARKENTDAGI BUNYODKORLIK, MAHALLIY ISHLAB CHIQARISH VA TURIZM ISTIQBOLLARI

Prezidentimizning Parkent tumaniga tashrifi, qurilish industriyasi va turizmni rivojlantirish bo‘yicha investor hamda tadbirkorlar bilan muloqoti tafsiloti



Yangi O‘zbekistonda sayyohlik sohasida erishilayotgan yutuqlar islohotlarning qanchalik samarador ekanini ko‘rsatadi. Ha, birgina turizmdagi yutuqlar mamlakatdagi siyosiy tafakkur nechog‘liq kuchli ekanini namoyon etib, iqtisodiy-ijtimoiy sohalar ko‘lamini belgilab beradi. Shu ma’noda, uni iqtisodiy-ijtimoiy hayot barometri deyish mumkin.

Shu o‘rinda turizm sohasidagi natijalarimizni aks ettiradigan faktlardan biriga e’tibor qaratsak. Joriy yil boshidan buyon mamlakatimizga chet ellik 11,6 million sayyoh kelgan. So‘nggi ikki yilda uzoq xorijdan kelayotgan turistlarning yurtimizda bo‘lish muddati o‘rtacha 6,5 kundan 8 kungacha uzaygan. To‘lov imkoniyati yuqori sayyohlar ulushi 14 foizdan 21 foizga, bir turist sarflaydigan o‘rtacha mablag‘ esa 21 foiz oshgan.

Turizm iqtisodiyot drayverlaridan. Ayni paytda uning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasi ham bor. Jumladan, xorijlik sayyoh o‘zga davlatga safar qilishdan oldin juda ko‘p jihatlarni hisobga oladi. Sayohat narxi, o‘zi borayotgan mamlakatdagi tinchlik, mezbonlarining qay yo‘sinda kutib olib, qanday kuzatib qo‘yishigacha hisobga oladi. Shu kabi ko‘plab jihatlar markazida esa xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanganmi, borib ko‘rish, dam olishga arziydigan manzillar ko‘pmi degan savollar turadi. Mazkur savollarga javob ijobiy bo‘lsa, demak, mamlakatda barcha soha barobar yuksalib, jamiyatda tinchlik, bag‘rikenglik hukm surayotgan bo‘ladi. Yil boshidan buyon xorijlik 11,6 million sayyohning kelgani, muhimi, ularning yurtimizda qolish muddati uzaygani yangi O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati qanchalik yuksalib borayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz rahbarining Toshkent viloyati Parkent tumaniga elektropoyezdda borganini ana shu islohotlar qat’iy va rejali yo‘lga tushib olganiga qiyoslash mumkin.

Keyingi yillarda Toshkent viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish uchun bir qancha yirik loyihalar amalga oshirildi. Shuningdek, hududning mehnatkash, samimiy va tanti aholisiga qulaylik yaratish borasida ham qator ishlar bajarildi. Joriy yil sentyabrdan Toshkentdan Parkentga qatnay boshlagan mazkur elektropoyezd ana shu jihatlarni o‘zida aks ettiradi. Zero, mazkur temir yo‘l orqali poytaxt va Parkent o‘rtasidagi masofa ancha qisqardi. Bu yo‘lovchilar uchun xavfsiz va qulay transport xizmatini kafolatlaydi. Ayni paytda aholining harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Tumanning sayyohlik jozibadorligini oshirib, tadbirkorlik va servis sohalari rivojiga xizmat qilyapti.

Shu o‘rinda faktlarga e’tibor qaratsak. Toshkentdan Parkent sari yo‘lga chiqqan elektropoyezd 1 soat 13 daqiqada manzilga yetib boradi. Shu orqali yo‘lovchilarning vaqti ham, naqdi ham tejaladi. Masalan, poyezd chiptasi 10 ming so‘m etib belgilangan. Bu shu yo‘nalishdagi taksi xizmatining o‘rtacha narxidan 2,5 barobar arzon. Muhimi, yangi yo‘nalishda kuniga 2000 gacha, yiliga esa 300 ming yo‘lovchini tashish imkoniyati bor. Bu yilning to‘rt faslida ham sayyohlarni o‘ziga rom etadigan tog‘li hudud uchun juda muhim ko‘rsatkich. Bunga esa o‘z-o‘zidan erishilayotgani yo‘q, albatta. Uning ortida aniq rejali tashabbus, zahmatli mehnat yotibdi. Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 27-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida qiymati 535,4 milliard so‘mlik loyiha ishlab chiqildi. Natijada elektrlashtirilgan 24 kilometrli temir yo‘l liniyasi yotqizildi. Shuningdek, Parkentda yangi bekat, uchta ko‘prik, avtomobil yo‘l o‘tkazgichi, 77 ta suv o‘tkazish inshooti hamda 16 ta avtomobil va temir yo‘l kesishmasi barpo etildi. Shuningdek, 24 kilometrli kontakt tarmog‘i va elektr uzatish liniyasi tortildi. Natijada 40 ta yangi ish o‘rni ochildi.

Toshkent va Parkent o‘rtasidagi umumiy masofasi 57,6 kilometr bo‘lgan yo‘nalishda olti vagondan iborat zamonaviy “EP3D” elektropoyezdi qatnamoqda. Soatiga 120 kilometrgacha tezlikda harakatlanadigan poyezd qariyb 600 yo‘lovchi sig‘imiga ega. Muhimi, zamonaviy va qulay. Masalan, vagonlarda iqlim nazorati tizimi o‘rnatilgan. Bu har qanday ob-havoda ham mo‘tadil haroratni ta’minlaydi. Qulay o‘rindiqlar, USB quvvatlash nuqtalari va bepul Wi-Fi esa yo‘l mashaqqatini yengillatadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus ko‘targichlar va moslashtirilgan joylar bor. Bu esa ijtimoiy davlat tamoyili hamma joyda va doim e’tiborda ekanini ko‘rsatadi. Toshkent viloyati velosportchilarning ham sevimli manzili. Shu bois, poyezdda velosipedlarni tashish moslamalari ham o‘rnatilgan. Elektron axborot tablolari safar haqidagi ma’lumotlarni kuzatib borish, videokuzatuv esa xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, poyezdda to‘qnashuv paytida zarba kuchini kamaytiruvchi tizim ham nazarda tutilgan.

Safar chog‘ida Prezidentimiz Toshkent viloyatining iqtisodiy salohiyatidan yanada samarali foydalanish masalalariga e’tibor qaratdi. Xususan, yer resurslaridan unumli foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi va mahsulotlarni qayta ishlash tarmoqlari salohiyatini kamida ikki barobar oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi ta’kidlandi.

Prezidentimiz Parkentning yangi vokzal stansiyasi bilan tanishdi. Shu yerda temir yo‘l infratuzilmasini yanada takomillashtirish, vokzallarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish borasida mutasaddilarga topshiriq berildi. Shuningdek, yo‘lovchilar uchun qulay sharoitlarni kengaytirish, qatnovlar samaradorligini ta’minlash va temir yo‘lga tutash hududlarni obodonlashtirish masalalari ham ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari “Bugun Parkentga kelishimdan maqsad — bu hududning imkoniyatlarini yanada kengaytirish, parkentliklarni o‘zgarishlarga ishontirish. Barcha harakatlarimiz har bir inson o‘z hayotidan rozi bo‘lishiga qaratilgan”, dedi.

Davomi 2-betda

Birlashsak – katta kuchmiz

YANGI O‘ZBEKISTON ZIYOLILARINING MISSIYASI QANDAY?



Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqami ketkumdir oxir.

Alisher Navoiy

Gohida o‘ylanib qolaman: aslida, “ziyoli” deb kimni aytamiz? Ko‘p kitob o‘qigan, qo‘lida bir necha diplomi yoki ilmiy unvoni bor odamnimi? Menimcha, yo‘q. Bilim odamga kuch va imkoniyat berishi rost, lekin o‘sha bilimni o‘z qobig‘ida saqlab qolmay, atrofdagi odamlar hayotini yaxshilashga, jamiyatning og‘irini yengil qilishga sarflay olish hammaga ham nasib etavermaydi.

Chinakam ziyolilik atrofda bo‘layotgan voqealarga befarq qarab turmaslik, mustaqil fikrlay olish va jamiyatdagi muammolarni ko‘rganda “menga nima” deb qo‘l siltab ketmasdan, ularning yechimiga vijdonan mas’uliyat sezishdir. Ziyolining qadri ham u nechta maqola yozgani emas, balki aytgan so‘zi va qilgan ishi odamlar hayotida qanday o‘zgarish yasayotgani bilan o‘lchanadi.

Yaqin tarixga nazar tashlang: XX asr boshidagi jadid bobolarimiz — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabilar yashagan davrda birortasida bugungidek zamonaviy akademiyalar yoki milliardlab grantlar bo‘lmagan. Lekin ular millatning dardini o‘z dardi deb bilgani, odamlarning ko‘zini ochish uchun bor-budini, hatto jonini tikkani sabab chinakam ziyoliga aylandi.

Davomi 3-betda

TEXNOLOGIK TARAQQIYOT DAVRIDA O‘ZGARAYOTGAN TABIAT QONUNIYATLARI VA INSON MAS’ULIYATI

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati bosh muharriri Salim DONIYOROVning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori, biologiya fanlari doktori, akademik Komiljon TOJIBOYEV bilan suhbati

Bugun global iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi va biologik xilma-xillikning kamayishi insoniyat oldiga tobora murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bu jarayon tabiiy resurslar, oziq-ovqat xavfsizligi va kelajak avlodlarning yashash sharoiti bilan bevosita bog‘liq. Ayni paytda zamonaviy ilm-fan tabiatda kechayotgan o‘zgarishlarni chuqur o‘rganish, ularning oqibatini oldindan baholash va biologik boyliklarni asrab qolish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Suhbatda fundamental ilm-fanning bugungi vazifalari, mamlakatimiz o‘simliklar dunyosini o‘rganish borasidagi ilmiy izlanishlar, ekologik muammolar va ularning yechimlari, shuningdek, milliy ilm-fanning xalqaro maydondagi o‘rni hamda istiqboldagi vazifalar xususida so‘z boradi.



— Zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanyapti. Insoniyat tabiatga ta’sir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini qo‘lga kiritmoqda. Ayni paytda tabiatning biz hali to‘liq anglab yetmagan qonuniyatlari ham ko‘p. Sizningcha, shunday sharoitda fundamental ilm-fanning jamiyat oldidagi eng muhim vazifasi nimadan iborat?

— Menimcha, fundamental ilm-fanning eng muhim vazifasi tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayonlarni, ularning kelib chiqish sabablari, mexanizmlari va qonuniyatlarini chuqur o‘rganishdir. Ilm-fanning jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyati esa ana shu bilimlar orqali bizni kelajakka tayyorlashdan iborat.

Biz ko‘pincha ilmiy tadqiqotdan, ayniqsa, fundamental izlanishlardan darhol amaliy natija, muayyan muammoning tayyor yechimini kutamiz. Aslida, fundamental fanning ahamiyatini faqat shu mezon bilan baholab bo‘lmaydi. Uning natijasi bugun yoki ertaga ko‘rinmasligi mumkin. Lekin yillar o‘tib, aynan shu tadqiqotlar qandaydir murakkab muammoni hal etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuning uchun bir fikrni doim muhim deb bilaman: muammo yuzaga kelganidan keyin unga yechim izlash bilan cheklanmasligimiz kerak. O‘sha muammoni hal qilishga zarur bilimlarni oldindan yaratishimiz shart. Fundamental fanning jamiyat uchun eng katta ahamiyatini, avvalo, shunda ko‘raman.

Tabiat haqida hali hamma narsani bilib ulgurganimiz yo‘q. O‘rganilmagan jarayonlar, ochilmagan qonuniyatlar juda ko‘p. Bilimlarimizdagi ana shu bo‘shliqni to‘ldirgunimizcha tabiiy boyliklarimizni, o‘simlik va hayvonot dunyosini, asrab-avaylashimiz zarur bo‘lgan ijtimoiy qadriyatlarimizni yo‘qotib qo‘ymasligimiz kerak. Chunki bugun boy berilgan ayrim tabiiy resurslarni ertaga hatto eng ilg‘or texnologiyalar yordamida ham tiklashning imkoni bo‘lmasligi mumkin.

Shu ma’noda, fundamental ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash doimiy e’tiborimizda bo‘lishi shart. Unga bugun sarflangan mehnat va mablag‘ning haqiqiy qiymati, ehtimol, kelgusi avlodlar hayotida yanada yaqqol namoyon bo‘lar.

Davomi 5-betda

Majmuada 350 va 700 o‘rinli restoranlar, uch qavatli fudkort, savdo shoxobchalari, ochiq va yopiq sport inshootlari joylashgan. Qolaversa, 2,2 ming kvadrat metr maydonni egallagan akvapark mavjud.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 21-noyabr, 242-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘Z KUCHIMIZ, O‘Z IQTISODIYOTIMIZ, O‘Z MA’RIFATIMIZ: PARKENTDAGI BUNYODKORLIK, MAHALLIY ISHLAB CHIQARISH VA TURIZM ISTIQBOLLARI

Boshlanishi 1-betda

Parkent tumanining Kumushkon mahallasidagi “Silver Valley” oilaviy dam olish majmuasi xalqimizni rozi qilish yo‘lidagi yirik loyihalardan. Umumiy qiymati 148,5 milliard so‘mlik majmua qariyb 30 gektar maydonda joylashgan. Loyiha doirasida 200 ta ish o‘rni ochish ko‘zda tutilgan. So‘lim tabiat qo‘ynidagi majmua sayyohlarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etishga moslashgan. Jumladan, hududda 120 o‘rinli 12 ta shale uslubidagi uy, zamonaviy qabul binosi qurilgan. Qolaversa, 300 o‘rinli restoran 100 o‘rinli terrasa-kafe hamda 4 ta SPA majmuasi barpo qilingan. O‘zligimizni yodga soladigan, 200 o‘ringa mo‘ljallangan 12 ta o‘tov-restoran ham sayyohlarga o‘zgacha kayfiyat ulashadi. Umuman, sayyohlarning mazmunli dam olishi uchun barcha sharoit bor. Jumladan, tafakkur yo‘lagi insonga o‘zligini anglash, baland cho‘qqidan turib yuksak marralarni ko‘zlashga undasa, vorkaut zonalari, ziplayn va tyubing attraksionlar sayohatning to‘liq zavqli o‘tishini kafolatlaydi. Bundan tashqari, yozgi kinoteatr va 10 ta attraksiondan iborat ko‘ngilochar maydon ham tashkil etilgan. Majmua to‘liq ishga tushgach, kuniga 2700 nafargacha mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari bu yerda yaratilgan sharoitlar va qilingan bunyodkorlik ishlari bilan tanishar ekan, sayyohlarga mahalliy mahsulotlar asosida xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va bunday maskanlarni boshqa tog‘li hududlarda ham ko‘paytirish muhimligini ta’kidladi.

Prezidentimiz shu manzilda aholi bilan samimiy suhbatlashdi. Muloqotda turmush darajasi yuksalishi bilan odamlarning mazmunli dam olishga ehtiyoji ortib borayotganiga ham e’tibor qaratildi. Mamlakatimizdagi o‘zgarishlardan asosiy maqsad inson manfaatlarini ta’minlash, odamlarning hayotdan roziligiga erishish ekani ta’kidlandi.

— Odamlarning daromadi ko‘payib, ishi yaxshilangani sari ular dam olish uchun qulay joy izlaydi. Parkentda shunday sharoitlar yaratsak, bu yerga oilalar farzandlari bilan kelib hordiq chiqaradi. Bunday turistik maskanlarni yil sayin ko‘paytirib borsak, nafaqat Toshkentdan, balki respublikamizning barcha hududlaridan odamlar keladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Qayd etilganidek, bunday loyihalar turizmni rivojlantirish bilan birga aholining dam olishi uchun munosib sharoitlar yaratish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va mahalliy tadbirkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmay, yangi tashabbuslarni amalga oshirish, odamlarda “qilsa bo‘lar ekan” degan ishonchni mustahkamlash zarurligi qayd etildi.

Keluvchilarning hududda uzoqroq qolishini ta’minlash, ular uchun qo‘shimcha xizmat turlarini ko‘paytirish va mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Olingan yangi marralardan xalqimiz qalbi tog‘dek yuksaldi. Ana shu tog‘lar bag‘rida navbatdagi manzil sari yuqorilab borilar ekan, shukrona, faxr va iftixorga to‘la Zohidjon Olovning ushbu satrlari yoqimli kuy kabi quloqqa chalinadi:

Tog‘lar tegrasida bir shahar ko‘rdim,
Uzukning ko‘zida men gavhar ko‘rdim,
Har qalbni quvonchdan munavvar ko‘rdim,
Aylanmish tengi yo‘q barnoga Parkent,
Quchoq ochayotir dunyoga Parkent!

Davlatimiz rahbari navbatdagi manzilda Parkentni dunyoga ochib berishga xizmat qiladigan yirik loyihalardan biri bilan tanishdi. Bu manzil Kumushkon mahallasidagi “Oltin bel” sayyohlik majmuasidir. Qirq yetti gektar maydonni egallagan majmua 2025-yilda bunyod etilgan “Kumushkon Resort” loyihasining davomi.

Unga qariyb 700 milliard so‘m investitsiya yo‘naltirilgan. Bu yerda zamonaviy mehmonxonalar, shale uslubidagi dam olish uylari, restoranlar, sport va ko‘ngilochar inshootlar barpo etilgan.

Hali manzilga yetib bormasingizdan osmonga tayanch bo‘lgan tog‘ bag‘ridagi ko‘rkam shaharcha ko‘rinadi. Shuning o‘ziyoq hududda yirik bunyodkorlik ishlari bajarilganini ko‘rsatadi. Jumladan, to‘rtta besh qavatli mehmonxona qad ko‘targan. Ular ko‘rinishdan ham, ichki imkoniyat jihatidan ham yirik shaharlardagi nufuzli mehmonxonalar bilan raqobatlasha oladi. Shuningdek, har birida alohida basseyni bo‘lgan 51 ta bir va ikki qavatli dam olish uyi qurilgan. Mehmonxonalarda turli toifadagi xonalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulayliklar, spa va boshqa xizmat ko‘rsatish hududlari tashkil etilgan.

Shuningdek, majmuada 350 va 700 o‘rinli restoranlar, uch qavatli fudkort, savdo shoxobchalari, ochiq va yopiq sport inshootlari joylashgan. Qolaversa, 2,2 ming kvadrat metr maydonni egallagan akvapark mavjud. Bundan tashqari, mehmonlar mazmunli hordiq chiqarishi uchun turli ko‘ngilochar maskanlar tashkil etilgan. Xususan, 14 turdagi attraksion, 650 metrli ziplayn, gravitatsion karting trassalari, rodelban, 800 o‘rinli amfiteatr, sun’iy ko‘l va hayvonot bog‘i barpo etilgan. Bular sayyohlarni o‘ziga jalb etsa, 1100 ta avtomobilni bag‘riga sig‘diradigan to‘xtash joyi odamlarning bemalol kelib ketishi uchun qulaylik yaratadi.

Ta’kidlanganidek, barcha sohada o‘sish kuzatilmoqda. Buning tub zamirida mamlakatimiz yetakchisi boshlab bergan hayotbaxsh islohotlar turibdi. Uning izchil davom etishi nafaqat siyosiy iroda, balki yuqori malakali kadrlarga ham bog‘liq. Shu bois, yurtimizda ta’limni yuksaltirish, kasb-hunar o‘qitish ustuvor vazifa etib belgilab olingan.



“Oltin bel” sayyohlik majmuasining drayver yo‘nalishlaridan biri ham aynan shunga qaratilgan. Ya’ni bu yerda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Majmuada tashkil etilgan o‘quv markazida mehmonxona va restoran xizmatlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda. Hozir Turizm qo‘mitasi tomonidan Kumushkon mahallasidagi ishsiz yoshlar o‘qitilayotgan bo‘lib, yil yakuniga qadar 300 mutaxassis tayyorlash reja qilingan. Ular kelgusida milliy kadrlar sinfini to‘ldirib, bugun biz o‘rganayotgan xalqaro tajribalarni O‘z iqtisodiyotimizning ishonchli ustuniga aylantiradi.

Xizmat ko‘rsatish sifatini xalqaro darajaga olib chiqish maqsadida mehmonxonalarni boshqarish Turkiyaning “Elite World” kompaniyasiga ishonib topshirilgan. Mehmonxona biznesida 46 yillik tajribaga ega ushbu kompaniyani jalb etish orqali boshqaruvga zamonaviy standartlarni joriy qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xorijlik sayyohlar oqimini ko‘paytirish ko‘zda tutilgan.

“Turizm — iqtisodiyotning drayveri” degan iboraning amaliy tasdig‘ini ushbu majmua misolida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, hisob-kitoblarga ko‘ra, majmua to‘liq ishga tushgach, 600 ta yangi ish o‘rni ochiladi. Kuniga 6000 gacha tashrif buyuruvchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ladi. Natijada majmua yiliga 200 milliard so‘m daromad keltirishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari majmuadagi sharoit bilan tanishib, turizm xizmatlari sifatini oshirish, mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish va hududning turistik imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalariga e’tibor qaratdi.

Shoir ko‘ksi to‘la faxr bilan “Quchoq ochayotir dunyoga Parkent!” deb she’r bitishida ham hayotiy haqiqat bor. Jumladan, shu yilning o‘tgan davrida tumanga xorijlik 198,2 ming va mahalliy 1,4 million sayyoh kelgan. Natijada turizm xizmatlari eksporti 81,1 million dollarga yetgan. Bu raqamlarni osongina yozib yuboryapmiz. Lekin bir dollar ortida ham katta mehnat, aniq rejali islohotlar turibdi. Bugungi global iqtisodiy tebranishlar davrida kelajakka ishonchli reja tuzishning o‘ziyoq o‘ta murakkab vazifadir. “Oltin bel” kabi yirik majmualar, aniq hisob-kitobga tayanib ishlab chiqilgan rejalar ana shunday davrda bizga marralarni yanada baland olish ishonchini beradi.

Prezidentimizning Toshkent viloyatining Parkent tumanida qurilish materiallari sanoati va turizmni rivojlantirish masalalari yuzasidan investorlar hamda tadbirkorlar bilan uchrashuvida ana shunday istiqbolli masalalar ko‘rib chiqildi. Kumushkon mahallasidagi “Oltin bel” sayyohlik majmuasida bo‘lib o‘tgan tadbirda sohalardagi ishlar teran tahlil etildi. Muhim vazifalar belgilab olinib, istiqbolli loyihalarga asoslangan tashabbuslar ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari dastlab bir yil avval ushbu hududda yirik turizm majmuasini barpo etish vazifasi qo‘yilganini qayd etdi. Mahalliy loyihachilar, quruvchilar va ishlab chiqaruvchilarga imkoniyat berilgani natijasida qisqa muddatda zamonaviy dam olish maskani bunyod etildi.

Muhim fakt: qurilish va jihozlashda mahsulotlarning 95 foizi mahalliy korxonalardan olingan. Bu o‘z tadbirkorlarimiz, o‘z mahsulotimiz orqali yirik bunyodkorlik loyihalarini amalga oshira olish quvvatiga ega ekanimizni isbotladi. Muhimi, shu tufayli loyiha tannarxi 20 foiz arzonlashdi.

Yig‘ilishda tajribani boshqa hududlarda ham keng qo‘llash, qurilish industriyasi va turizmni bir-birini to‘ldiradigan, o‘zaro yangi imkoniyatlar yaratadigan sohalarga aylantirish zarurligi ta’kidlandi.

Uchrashuvda dastlab qurilish materiallari sanoatida erishilgan natijalar va mavjud imkoniyatlar tahlil qilindi. So‘nggi o‘n yilda sohaga 12 milliard dollar investitsiya kiritilib, 5000 dan ziyod zamonaviy korxona ishga tushirilgan. Joriy yilda ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagi 7 trillion so‘mdan 65 trillion so‘mga, eksport qiymati esa 75 million dollardan 1,5 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli qurilishlar va investitsiya loyihalari mahalliy mahsulotlar uchun katta bozor yaratmoqda. Qo‘shni davlatlar va yaqin mintaqalarda ham bu mahsulotlarga talab yuqori.

Bundan o‘n yil oldin ham voha faqat paxta va g‘alla yetishtiradigan hudud edi. Bugun u yerda ishlab chiqarilayotgan sanoat, xususan, qurilish mahsulotlari eksport qilinyapti. Lekin hali foydalanish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar ko‘p. Shu bois, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish mumkin. Buning uchun mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishini qo‘llab-quvvatlash va logistika imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu orqali soha eksportini yaqin yillarda 5 milliard dollarga yetkazish imkoni bor. Bu imkoniyatni real natijaga aylantirish esa mahsulotlar sifati, dizayni va raqobatbardoshligiga ham bog‘liq.

Yurtimizda 161 turdagi qurilish materiali bo‘yicha ichki talabni qoplashga yetarli quvvatlar yaratilgan bo‘lsa-da, ayrim mahsulotlar importi yiliga 780 million dollarni tashkil etmoqda.

Shu bois, ichki bozor ehtiyojlarini chuqur o‘rganish, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro brendlarni jalb etish asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish vazifasi qo‘yildi. Bu borada Turkiyaning “Betek” kompaniyasi bilan Zangiota tumanida 30 million dollarlik lok-bo‘yoq zavodi qurilishi boshlanayotgani qayd etildi.

Yig‘ilishda yirik strategik loyihalarni mahalliy qurilish materiallari bilan ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, Jizzax viloyatidagi atom elektr stansiyasi qurilishi uchun 2,2 milliard dollarlik qurilish materiallari talab etiladi. Mazkur ehtiyojni ichki imkoniyatlar bilan qoplashning o‘ziyoq aholi uchun ko‘plab ish o‘rinlari ochib, davlat g‘aznasiga salmoqli ulush qo‘shishni anglatadi.

Mamlakatimiz rahbari bu boradagi yechimni ham ko‘rsatib o‘tdi. Ya’ni Egizbuloq mahallasidagi 200 gektar maydonda maxsus sanoat zonasi tashkil qilinadi. Unda 70 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Mutasaddilarga import o‘rnini bosuvchi va yirik loyihalarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni aniqlab, umumiy qiymati 20 milliard dollarlik loyihalar bo‘yicha amaliy ishlarni boshlash topshirildi.

Ishbilarmonlikning tabiati foydani ko‘zlab ish ko‘rishni talab etadi. Shu bois, tadbirkorga qanchalik ko‘proq imkoniyat berilsa, shuncha ko‘p foyda olib, mamlakat taraqqiyotiga ko‘proq hissa qo‘shadi. Yurtimizda tadbirkorlarga katta e’tibor berilib, davlatimiz rahbari yil davomida takror-takror ular bilan muloqot qilishining sabablaridan biri imkoniyat orqali foydani ko‘paytirishdir. Tadbirda yangi turdagi yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun imtiyozli moliyaviy resurslar ajratish, korxonalarning energiya tejovchi uskunalar xaridi bilan bog‘liq xarajatlarini qisman qoplash choralari ham belgilandi.

Xalqimiz orasida “Ushog‘i ham non” degan naql bor. Bu bizga berilgan barcha ne’matga tatbiq etiladi. Ya’ni ne’matlarni qanchalik tejab, qadrlab sarflasak, shuncha ko‘p baraka keladi. Buni jahon bozorida tobora qiymati oshib borayotgan pardozbop toshlar misolida ko‘rish mumkin. Bugun bu borada ham bajarilishi zarur bo‘lgan ishlar bor. Shu bois, pardozbop toshlar sanoatida xomashyoni chuqur qayta ishlash va chiqindilardan samarali foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Yangi konlarni “nol chiqindi” tamoyili asosida o‘zlashtirish, mavjud konlar atrofida qayta ishlash korxonalarini tashkil etish vazifalari qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari qurilish tannarxini pasaytirish va byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish masalalariga ham to‘xtaldi. Ayrim hududlarda o‘xshash obyektlar qurilishi qiymati sezilarli farq qilayotgani, bunga ortiqcha vositachilar va loyiha-smeta hujjatlarining qayta-qayta o‘zgartirilishi sabab bo‘layotgani tanqid qilindi.

Kelasi yildan byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan qurilishlarda, birinchi navbatda, mahalliy mahsulotlardan foydalanish talabi joriy etiladi. Davlat xaridlari portalida mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun maxsus savdo maydonchasi tashkil qilinadi. Shuningdek, Yangi Toshkentda qurilish ishlarini olib borayotgan tadbirkorlarga mahalliy materiallar xaridiga yo‘naltiriladigan 200 million dollarlik kredit liniyasi ochiladi.

Barcha sohadagi yutuqlar zamirida sifatli mahsulot va xizmat ko‘rsatish turadi. Bu, ayniqsa, qurilish sohasida yanada dolzarblik kasb etadi. Endi qurilish materiallari sifatini nazorat qilish va aholini xavfli mahsulotlardan himoyalash maqsadida Toshkent shahri, Farg‘ona va Samarqandda uchta zamonaviy sinov laboratoriyasi tashkil etiladi. Loyiha institutlarini transformatsiya qilish, qurilishga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va bu jarayonga xususiy investorlarni jalb etish vazifalari ham belgilandi.

Uchrashuvning keyingi qismi turizmni rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va sohaga investitsiyalar jalb etish masalalariga bag‘ishlandi.

Prezidentimiz turizmda endi asosiy e’tiborni sayyohlar soni bilan birga xizmat ko‘rsatish sifati, ularning mamlakatimizda uzoqroq qolishi va ko‘proq xarajat qilishi uchun sharoit yaratishga qaratish zarurligini ta’kidladi. Buning uchun sohada tadbirkorlikni rag‘batlantirish choralari kengaytirilmoqda. Mehmonxona qurilishi uchun imtiyozli moliyaviy resurslar ajratilmoqda, yer va mol-mulk solig‘i bo‘yicha yengilliklar 2030-yilgacha uzaytirilgan. Turoperatorlar va turistik transport xizmatlari uchun ham qo‘shimcha imtiyozlar joriy etilgan.

Yaqin vaqtda qabul qilinishi rejalashtirilgan turizmni rivojlantirish strategiyasi doirasida xorijlik sayyohlar sonini 20 millionga, sohaning iqtisodiyotdagi ulushini 7 foizga, turizm xizmatlari eksportini esa 10 milliard dollarga yetkazish maqsad qilinmoqda.

Bunday katta marrani olish oson emas. Bu mashaqqatli mehnat orqali yirik loyihalarni amalga oshirishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun hududlarda qo‘shimcha 5000 gektar yer tayyorlanadi. Shuningdek, shakllantirilgan 11 milliard dollarlik turizm loyihalari bo‘yicha bir oy ichida amaliy ishlarni boshlash topshirildi.

Bu yil 25-27-noyabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkaziladigan turizm sohasidagi birinchi xalqaro investitsiya forumi yangi loyihalarni ilgari surish uchun muhim imkoniyat ekani qayd etildi. Unda 30 ga yaqin davlatdan 100 dan ziyod yirik investor ishtirok etishi kutilyapti. Hududlar rahbarlari oldiga forumda aniq investitsiya kelishuvlariga erishish vazifasi qo‘yildi.

Sayyohlik maskanlarining yil davomida faoliyat yuritishini ta’minlash, savdo va ko‘ngilochar xizmatlarni ko‘paytirish, mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida sayyohlik salohiyati oshib bormoqda. Buning uchun yetarlicha shart-sharoit yaratib berilyapti. Mazkur ishlarni yanada samarador qilish borasidagi vazifalar ham ko‘rib chiqildi. Jumladan, hududlardagi kongress markazlari, mehmonxonalar va turizm majmualarida yirik xalqaro tadbirlarni muntazam o‘tkazishga ham alohida e’tibor qaratildi. Bundan buyon har bir vazir o‘z sohasi bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning yiliga kamida 3-4 ta yirik tadbirini mamlakatimizda o‘tkazishga mas’ul bo‘ladi. Hukumatga bu borada ikki yillik rejani tasdiqlash topshirildi.

Turizmning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish doirasida havo sharlari, paraplan va deltaplan xizmatlarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari muhokama qilindi. Bu faoliyat uchun ruxsat olish tartibini yengillashtirish va kelasi yil har bir hududda kamida bitta shunday xizmat ko‘rsatish maskanini tashkil etish vazifasi belgilandi.

Toshkentdan Parkentga poyezd borishi turizm rivoji yo‘lidagi yirik loyiha bo‘ldi. Shuning o‘ziyoq mamlakatimizda transport xizmatlarini kengaytirishga qanchalik jiddiy qaralayotganini ko‘rsatib turibdi. Mutasaddilar oldida esa shu imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, uning samaradorligini oshirish vazifasi turibdi. Shu ma’noda, turistik manzillarga transport qatnovlarini sayyohlar ehtiyojiga moslashtirish masalasiga e’tibor qaratildi. Ayrim yo‘nalishlarda poyezdlarning borish va qaytish vaqti turistlarning hudud bilan to‘laqonli tanishishiga imkon bermayotgani qayd etildi. Mutasaddilarga bir oy ichida temir yo‘l va ichki aviaqatnovlar jadvalini qayta ko‘rib chiqish topshirildi.

Hozir O‘zbekistondan dunyoning 102 ta shahriga to‘g‘ridan to‘g‘ri reyslar mavjud. Yig‘ilishda xalqaro aviaqatnovlar geografiyasini kengaytirish ham muhim vazifa sifatida belgilandi. Xorijiy aviakompaniyalarni yangi yo‘nalishlarga jalb etish, jumladan, “beshinchi havo erkinligi” imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Shuningdek, sayyohlar uchun qulay to‘lov xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiyani kengaytirish va turistik maskanlarda ko‘chma savdo nuqtalarini ko‘paytirish choralari belgilandi.

Davlatimiz rahbari turizm sohasida fidokorona mehnat qilayotgan mutaxassislarni rag‘batlantirish masalasiga ham to‘xtaldi. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan turizm xodimi” faxriy unvonini ta’sis etish tashabbusi doirasida soha rivojiga munosib hissa qo‘shgan xodimlarni Mustaqillik bayrami arafasida taqdirlash taklif qilindi.

Uchrashuv yakunida Prezidentimiz investor va tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Tig‘iz ish rejasi bilan o‘tgan tashrif so‘ngida mamlakat yetakchisi investor va tadbirkorlarning fikr-mulohazalari va takliflarini tingladi.

Parkentning purviqor tog‘lari oralab kelayotgan mashinalar karvonidagi hamrohlarning yuz-ko‘zida mamnunlik aks etadi. Ular go‘yoki shu tog‘lardan ilhom olib, ilgari surilgan tashabbuslardan kuch olgandek ko‘rinadi. Shu payt surxondaryolik nuroniy aytgan hikmat yodimga tushadi: “Hayot tog‘dan boshlanadi!”.

Ha, eng katta daryolarning bosh irmog‘i ham tog‘larga tutashgan bo‘ladi. Insonlar ham shunday. Tog‘larga bo‘ylashib, ularga talpinib yashagani sari yuksaladi. Bu o‘ylar sharhimiz avvalida tug‘ilgan mulohazalarni to‘ldiradi: turizm mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotini ko‘rsatadigan barometr.

Bugun dunyoning to‘rt tarafidan kelgan va ko‘proq shu yerda qolishni istayotgan sayyohlar mamlakatimizdagi tinchlikka ishongani, xalqimizning ma’rifati, mehmondo‘stligi, iqtisodiy imkoniyatlar sabab yuqori sifatli xizmatlardan foydalanish mumkin ekanini bilib, his etib yurtiga qaytmoqda. Bu yangi O‘zbekistondagi islohotlarga bildirilgan ishonch, mamlakatimizning boy tarixi, bebaho madaniy merosiga bo‘lgan mehr ifodasi. Shunday o‘ylar sabab yana shoir Zohidjon Olovning o‘tli satrlari yodga tushadi:

Bu kunlar yozilgay dil mehrobiga,
Jahon tarixining zar kitobiga,
London, Parijlarning kirar xobiga,
Shon-shuhratda bo‘ylab samoga Parkent,
Quchoq ochayotir dunyoga Parkent!

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Muhokamalarda ziyolilar 3000 dan ortiq fikr-mulohaza va mingga yaqin taklif bildirdi. Aholi uchun ochilgan maxsus telegram-botga yana 600 taga yaqin taklif kelib tushdi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Birlashsak – katta kuchmiz

Yangi O‘zbekiston ziyolilarining tarixiy missiyasi o‘z bilimi va iqtidorini asrab-avaylash emas, uni millat tafakkurini yangilash, jamiyatni ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtirish va Vatan taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga safarbar etishdir.



YANGI O‘ZBEKISTON ZIYOLILARINING MISSIYASI QANDAY?



Abror YUSUPOV,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Bugungi ziyolilik ham xuddi shunday **befarqlikka qarshi immuniteti, qilgan ishi odamlar hayotida nechog‘liq yorug‘lik taratayotgani bilan belgilanishi** lozim.

O‘zbekiston Qahramoni, zakiy munaqqid Ozod Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda, *“Bugungi zamon yoxud davr bilan hamqadam, hamnafas yurmoq uchun tinimsiz ravishda o‘z-o‘zini tahlil qilib borish, bosib o‘tgan yo‘liga tanqidiy nazar bilan qarash, umumlashmalar qilish, yo‘lning qaysi nuqtasiga yetib kelganligini belgilab olish, belgilangan joyga yetib kelolmagan bo‘lsa, buning sabablarini halol va to‘g‘ri aniqlash talab qilinadi. Bu vazifani esa ziyolilar bajarmog‘i kerak bo‘ladi”*.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’lim va ilm-fangacha bo‘lgan yaxlit uzluksiz tizim barpo qilindi. Unda inson kapitalini rivojlantirish, uni zamonaviy tendensiyalar bilan uyg‘unlashtirish uchun keng institutsional sharoitlar yaratildi.



Har qanday islohotga jon bag‘ishlaydigan, uni qog‘ozdan hayotga ko‘chiradigan kuch jamiyatning eng ilg‘or qatlami bo‘lmish ziyolilardir. Shu bois, olimlar, pedagoglar, ijodkorlar va fidoyi mutaxassislar **jamiyatning uyg‘oq vijdoni** sifatida maydonga chiqmas ekan, eng mukammal qonun va dasturlar doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Yangi O‘zbekiston ziyolilarining bosh missiyasi ham yaratilgan imkoniyatlarni odamlarning kundalik turmush farovonligi va ma’naviy yuksalishiga xizmat qildirishdan iborat.

Inson intellektual rivojlanishining dastlabki ko‘nikmalari bolalik davrida — oila va maktabgacha ta’lim muhitida shakllanadi. Bolaning olamga hayrat bilan boqishi, savol berishga qiziqishi, mustaqil fikrlashga intilishi aynan shu bosqichda shakllanadi.

Shu bois, maktabgacha ta’limni faqat bolani maktabga tayyorlash vositasi emas, balki millatning ertangi ziyoli qatlamini yetishtiruvchi muhim poydevor sifatida ko‘rish lozim.

Bu borada mamlakatimizda **tarixiy burilish** yuz berdi.

2017-yilda maktabgacha ta’lim bilan qamrov atigi **27 foizni** tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib **78 foizga** yetdi — qamrov qariyb uch barobar kengaydi. So‘nggi o‘n yilda **1 million 800 ming o‘rinli** bog‘chalar va **1 million 500 ming o‘rinli** maktablar barpo etildi, **10 mingdan ortiq** ta’lim muassasasi zamonaviy qiyofaga keltirildi. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i esa millatning eng sara iqtidorlarini erta kashf etish maydoniga aylandi.

Oliy ta’limda ham vaziyat tubdan o‘zgardi. 2016-yilda oliy ta’lim qamrovi **9 foizni** tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda **44 foizdan** oshdi, 2026-yilda esa **45 foizga** yetdi. Oliy ta’lim muassasalari soni **77 tadan 205 taga** ko‘paydi. Birgina 2025/2026 -o‘quv yili uchun bakalavriat va magistratura bosqichlariga **45 ming 422 ta davlat granti** ajratilgani, xususan, muhandislik va texnik yo‘nalishlarga ustuvorlik berilgani ertangi kun bunyodkorlarini tayyorlashga qaratilgan ulkan sarmoyadir.

Yana bir muhim jihat. Bugun ustoz va ziyolining qadri davlat siyosati darajasida ulug‘lanmoqda. 2023-yilda yangilangan Konstitutsiyada o‘qituvchi mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini boyitishning asosi sifatida mustahkamlandi. Bu norma pedagog va ziyolini shunchaki ta’lim beruvchi emas, balki millat ma’naviyatining tayanchi maqomiga ko‘tardi.

Millatning ziyoli qatlami kitobxonlikdan unib chiqadi. 2026-yil boshida qabul qilingan dastur asosida 2030-yilgacha mamlakatda aholining kitob o‘qish ko‘rsatkichini **yiliga o‘rtacha 10 ta kitobga** yetkazish maqsad qilindi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasiga yiliga **20 milliard so‘m** ajratilishi belgilandi.

Buyuk ajdodimiz **Abu Ali ibn Sino**: *“Ilm — narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir, amalsiz ilm esa mevasiz daraxt kabidir”*, deb ta’kidlagan edi. Zero, yosh avlod qalbida halollik, vatanparvarlik va mustaqil fikrlash kabi fazilatlar yuksak darajada mujassam bo‘lishi lozim.

Oddiy haqiqat shundaki, uyida kitob o‘qilmaydigan ota-ona bolasidan mutolaani talab qilolmaganidek, o‘zi halol va izlanuvchan bo‘lmagan ziyoli ham ortidan yoshlarni ergashtirolmaydi.

Qonimizdagi tafakkur kodi va raqamli asr chaqiriqlari

Mamlakatimizda ilm-fan va ma’rifat xususida so‘z ketganda, beixtiyor ko‘z o‘ngimizda Vatanimiz zaminida yashab, butun bashariyat tafakkurini nurafshon etgan buyuk qomusiy mutafakkirlar — Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy siymolari gavdalanadi.

XI asrdagi Xorazm Ma’mun akademiyasidan tortib, temuriylar davri Renessansigacha bo‘lgan tariximiz **jamiyat yuksalishining boshida hamisha ma’rifatparvar ziyolilar turganidan dalolat beradi**.

Bugun tarixiy merosning davomiyligi uni shunchaki faxr bilan tilga olishda emas, balki zamonaviy ilm-fan yutuqlarini yaratish va ularni xalq farovonligiga yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi.



“Bugungi kun ziyolisi shu savolga javob topa olishi kerak. Bu javob amaliy ish bilan ko‘rsatiladi, albatta. Ziyolilarni “millat oydinlari” deymiz. Qaysi jamiyatda ziyolilarning ovozi baland yangrasa, shu jamiyat barcha jabhada taraqqiyot sari olg‘a yuradi.

Prezidentimizning ilm-fan namoyandalari va ijodkor ziyolilar bilan o‘tkazgan uchrashuvlarida ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga ustuvor ahamiyat berilgani ham ayni shu maqsadga qaratilgan.

Olimning mehnatiga munosabat qay darajada o‘zgarganini, eng avvalo, raqamlar ko‘rsatadi. Birgina 2025-yilning o‘zida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga qariyb 1,7 trillion so‘m yo‘naltirildi. Bugun mamlakatimizda 43 mingdan ortiq tadqiqotchi faoliyat yuritmoqda. Ular qatoriga xorijdan qaytayotgan vatandoshlarimiz ham qo‘shilmoqda. Fanlar akademiyasi o‘nta muhim yo‘nalishda yo‘lga qo‘ygan ikki yillik reintegratsiya grantlari o‘zga yurtlarda tajriba orttirgan olimlarimizga “Uyingizga qayting, bilimingiz shu yerda kerak”, degan ochiq taklif misolidir.

Oldinda bundan ham katta maqsadlar turibdi. 2030-yilgacha ilm-fanga sarflanadigan mablag‘ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini o‘n barobar oshirish, bu mablag‘ning 30 foizini xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri keltirish rejalashtirilgan. Yaqin ikki yilda ro‘yxatdan o‘tkazilgan intellektual mulk obyektlari sonini 100 mingtaga yetkazish ko‘zda tutilgan. Boshqacha aytganda, g‘oya qog‘ozda qolmasligi, himoyalangan ixtiroga, ixtiro esa mahsulotga aylanishi kerak.

Sun’iy intellekt sohasidagi o‘zgarishlar ayniqsa sezilarli. O‘zbekiston 2026-yilda bu sohaga tayyorlik bo‘yicha xalqaro reytingda birdaniga 25 pog‘ona ko‘tarilib, 62-o‘rinni egalladi. Mamlakatda 200 dan ortiq sun’iy intellekt loyihasi amalga oshirilmoqda. “5 million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi esa yangi avlod ziyolilarini raqamli dunyoga tayyorlamoqda.

Bugungi iqtisodiy raqobatda yer osti boyligi yoki arzon ishchi kuchidan ko‘ra bilim, sun’iy intellekt va innovatsiyalar ko‘proq g‘olib kelmoqda. Shunday shiddatli davrda ziyolining vazifasi yangi texnologiya yaratish bilangina cheklanmaydi. U jamiyatni bu o‘zgarishlarga ma’nan va aqlan tayyorlashi kerak.

Yaratilayotgan imkoniyatlar o‘z samarasini berayotgani xalqaro maydonda ham yaqqol ko‘rinmoqda. O‘tgan yili o‘quvchi va talabalarimiz xalqaro fan olimpiadalaridan 278 ta medal olib qaytdi, ularning 51 tasi oltin. Shu yil avgustda Toshkentning o‘zida 97 davlatdan kelgan 386 nafar yosh dasturchi ishtirokida xalqaro informatika olimpiadasi bo‘lib o‘tdi. Unda terma jamoamiz bir kumush va uch bronza medalni qo‘lga kiritib, tarixdagi eng yaxshi natijani qayd etdi. Iyulda Germaniyaning Mangeym shahrida o‘tgan xalqaro nemis tili olimpiadasida samarqandlik Marjona Ibodullayeva oltin, urganchlik Olimbek Baxtiyorov bronza medalni qo‘lga kiritdi. Samarqand va Urganch nomi dunyo sahnasida aynan shunday yoshlar orqali yangramoqda.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali tahsil olayotgan yoshlarimizning 80 foizi bugun dunyoning eng nufuzli yuzta universitetida o‘qimoqda. Ilgari bu ko‘rsatkich 30 foiz edi. Katta ilmda ham yangi sahifalar ochilmoqda. Astronomiya instituti olimlari Otabek Burhonov va Kamoliddin Ergashev NASAning DART kosmik missiyasidagi tadqiqotlari uchun xalqaro mukofotga sazovor bo‘ldi. Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Shahlo Turdiqulova esa O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixida ilk bor Jahon fanlar akademiyasining (TWAS) mintaqaviy vitse-prezidenti etib saylandi.

Jahon intellektual mulk tashkilotining Global innovatsiyalar indeksida O‘zbekiston 139 mamlakat orasida 77-o‘ringa chiqib, 2020-yildagiga nisbatan 19 pog‘ona ko‘tarildi. Ilm-fan va muhandislik bitiruvchilari ulushi bo‘yicha esa dunyoda ikkinchi o‘rindamiz. Biroq shu indeksning o‘zida innovatsiyalarga ajratilayotgan resurslar bo‘yicha 68-o‘rin, innovatsion faoliyat natijalari bo‘yicha 78-o‘rin egallangan. Demak, bizda iste’dod ham, mutaxassis ham yetarli, ammo bu salohiyat hali to‘liq iqtisodiy samaraga aylanmayapti. Shu bo‘shliqni to‘ldirish bugungi ziyolilar va ilmiy jamoatchilik oldidagi eng mas’uliyatli vazifalardan biridir.



Davr sinovidagi vijdon

Sharqning ulug‘ mutafakkiri **Abu Nasr Forobiy** mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida: *“Fozil shahar aholisi bir-biriga yordam beradigan, haqiqiy baxt-saodat yo‘lida ilm va ma’rifatga tayanadigan jamiyatdir”*, deb ta’kidlagan. Bugungi shiddatli davr ham ziyolilardan kabinet doirasida qolib ketmasdan, jamiyat hayotining eng og‘riqli nuqtalariga kirib borishni talab etmoqda. Ziyoli davlat va xalq o‘rtasidagi jonli ko‘prik, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ma’naviy ustundir.

Masalan, muayyan hududda yoshlar bandligi muammosi mavjud bo‘lsa, uni faqat ish o‘rinlari yetishmasligi bilan izohlash yetarli emas. Bunda ta’lim sifati, kasbiy ko‘nikmalar, mehnat bozori talablari va yoshlarning ijtimoiy intilishlarini birgalikda o‘rganish talab etiladi. Bu jarayonda olim, pedagog, iqtisodchi, psixolog va ijodkorning bir yoqadan bosh chiqarishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xuddi shunday, suv resurslaridan oqilona foydalanish yoki ekologik muammolarni hal etishda muhandislik yechimlari bilan birga aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishda ziyoli so‘zining ta’siri beqiyos.

Ziyolilarning islohotlarga daxldorligi ularni shunchaki ma’qullash bilan emas, balki qilinayotgan ishlar samaradorligini xolis baholash, kamchiliklarni ro‘y-rost ko‘rsatish va ilmiy asoslangan yechimlarni ilgari surishda namoyon bo‘ladi. Zero, sog‘lom tanqidiy tafakkur taraqqiyotga to‘siq emas, aksincha, qarorlar sifatini oshiruvchi va jamiyatni xatolardan asrovchi kuchdir.

Shu nuqtai nazardan, hududlarda tashkil etilayotgan ziyolilar uchrashuvlari va jamoatchilik kengashlari rasmiy tadbirlar doirasida qolib ketmasdan, mahalliy muammolarni chuqur tahlil qiluvchi, aniq ijtimoiy loyihalarni ishlab chiquvchi aql markazlariga aylanishi lozim. Zotan, jamiyat rivoji uchun tadbirlar sonidan ko‘ra ularning natijasi, balandparvoz shiorlardan ko‘ra hayotga tatbiq etilgan amaliy yechimlar muhimroqdir.

Ziyoli qatlam o‘rtasidagi muloqot maydonlarini yaratishga qaratilgan amaliy qadamlardan biri yaqinda qo‘yildi. Joriy yilning 10-14-noyabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlarda **“Yangi O‘zbekiston ziyolilari — milliy yuksalish tayanchi!”** shiori ostida O‘zbekiston ziyolilari kengashining hududiy yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishlarda 2000 dan ortiq olim va professor-o‘qituvchi, shifokor va muhandis, madaniyat va san’at namoyandalari, nuroniylar hamda ijtimoiy faol yoshlar ishtirok etdi. Poytaxtdan har bir hududga taniqli olim, pedagog va ijodkorlardan iborat ishchi guruhlar bordi. Ammo asosiy so‘z joylardagi ziyolilarga berildi: muammoni yaxshi biladigan va yechimini ham ko‘pincha o‘zi ko‘ra oladigan odamlar shulardir.

Muhokamalar 7 ta sho‘bada o‘tkazildi. Kun tartibida “inson qadri” g‘oyasi va fuqarolik o‘zligi, o‘zbek tilining mavqei, millatlararo totuvlik, raqamli mediamakon, kreativ iqtisodiyot, yashil taraqqiyot, innovatsion tibbiyot va ta’lim sifati kabi masalalar bor edi. Mavzularning o‘ziyoq bugungi ziyolining tashvishi faqat ma’naviyat bilan cheklanmasligini ko‘rsatib turibdi.

Muhokamalarda ziyolilar 3000 dan ortiq fikr-mulohaza va mingga yaqin taklif bildirdi. Aholi uchun ochilgan maxsus telegram-botga yana 600 taga yaqin taklif kelib tushdi. Bu kengash faqat ziyolilar o‘rtasidagi suhbat bilan cheklanib qolmay, keng jamoatchilikka ham eshigini ochayotganidan dalolat.

Hududiy bosqich yakunida eng faol ishtirokchilar orasidan 210 vakil respublika yig‘ilishiga saralandi. Ular orasida 18 yoshli talaba ham, 88 yoshli nuroniy ham bor. Yoshi, kasbi, viloyati har xil bo‘lgan bu insonlarni bitta savol birlashtiradi: ziyoli sifatida jamiyatga nima bera olaman?

Bugungi kun ziyolisi shu savolga javob topa olishi kerak. Bu javob amaliy ish bilan ko‘rsatiladi, albatta. Ziyolilarni “millat oydinlari” deymiz. Qaysi jamiyatda ziyolilarning ovozi baland yangrasa, shu jamiyat barcha jabhada taraqqiyot sari olg‘a yuradi.

Ingliz adibi Charlz Dikkensning: *“Inson boshqalarning kamol topishiga yordam bermas ekan, o‘zi ham tom ma’noda kamol topa olmaydi”*, degan hikmati ziyolilikning asl mohiyatini ochib beradi.

Shu ma’noda, ziyolilarning jamiyat oldidagi mas’uliyati, ta’bir joiz bo‘lsa, ziyolilikning eng oliy mezoni **shaxsiy namuna** va **vijdon uyg‘oqligidir**. Ilmiy halollik haqida gapirgan olim o‘z tadqiqotida unga qat’iy amal qilishi, ma’rifatga chaqirgan pedagog doimiy izlanishda bo‘lishi, adolat va faollikka da’vat etgan ijodkor esa jamoatchilik hayotida oldingi safda turishi kerak.

Ayniqsa, bugungi axborot asrida, yoshlar ongi uchun kurash ketayotgan bir paytda, ziyolilar zamonaviy raqamli maydonlar: ijtimoiy tarmoqlarda, mediamakonda ham faol bo‘lishlari, yot g‘oyalarga qarshi ma’rifat va mantiq bilan kurashishlari, yoshlar uchun ishonchli ma’naviy mo‘ljal bo‘lib xizmat qilishlari shart.

So‘ngso‘z o‘rnida

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda ta’lim qamrovini kengaytirish, pedagog maqomini konstitutsiyaviy mustahkamlash, ilm-fanni moliyaviy rag‘batlantirish va yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ulkan poydevor yaratildi.

Binoning mustahkamligi va ko‘rki uni bunyod etuvchilarga bog‘liq bo‘lganidek, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash ham bevosita ziyolilarimizning fidoyiligi, jur’ati va ijtimoiy faolligiga bog‘liq.

Zotan, intellektual salohiyat inson qadrini yuksaltirish, odamlar hayotini yengillashtirish va jamiyatda adolat hamda ma’rifat muhitini qaror toptirishga xizmat qilgandagina o‘z oliy maqsadiga yetadi.

Maqolamiz avvalidagi **Alisher Navoiy-ning** *“Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tuproqqami ketkumdir oxir”*, degan o‘lmas bayti har bir ziyoli uchun dasturulamal bo‘lmog‘i lozim.

Shunday ekan, yangi O‘zbekiston ziyolilarining tarixiy missiyasi o‘z bilimi va iqtidorini asrab-avaylash emas, uni millat tafakkurini yangilash, jamiyatni ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtirish va Vatan taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga safarbar etishdir.

EKOLOGIYANI ASRAB, DAROMADNI OSHIRISH SIRI

SUVNI TEJASHDIR

Qishloq xo‘jaligida zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish natija bera boshladi. Bu islohotlar samarasini Qoraqalpog‘iston misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Hozir 14 ta tumanda “Suvchilar maktabi” tajriba maydonlari tashkil etilyapti. Xususan, 8 talabgorning 128,9 gektar g‘alla maydonida yomg‘irlatib, 10 talabgorning 193,8 gektar maydonida tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy etildi. Xo‘jayli tumanidagi “Tojimurot O‘tambetov” fermer xo‘jaligi ham bu borada muayyan natijalarga erishgan.



— 2026-yilda 22,1 gektar g‘alla maydonimizda yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasidan foydalandik. Natijada vegetatsiya davrida 33 ming kub metr suvni tejashga erishdik. Tajribadan kelib chiqib, kelgusi yil hosili uchun ekilgan g‘alla maydonlarida ham shu texnologiyani joriy etish uchun tarmoqni kengaytirdik, — deydi fermer xo‘jaligi rahbari Odilbek O‘tambetov.

“Suvchilar maktabi” loyihasi doirasida har bir tumanda bittadan fermer xo‘jaligining paxta va g‘alla dalalarida o‘quv-tajriba maydonlari tashkil etilmoqda. Ularda suv tejovchi texnologiyalar namoyish qilinib, fermer va dehqon xo‘jaliklari vakillari uchun seminar-treninglar o‘tkazilyapti.

Bu kabi ishlar ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va suv resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qilyapti. Ayni kunlarda hududlarda 2027-yil hosili uchun g‘alla ekilgan maydonlarda yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini o‘rnatish va montaj ishlari bajarilyapti. Tomchilatib sug‘orishda suv maxsus quvur va tomizgichlar orqali bevosita o‘simlik ildiziga yetadi. Namlik kerakli joyga, zarur miqdorda berilgani uchun behuda sarf kamayadi. O‘g‘itdan foydalanish samaradorligi ortadi. Yomg‘irlatib sug‘orish esa suvni maydonga bir tekis tarqatadi. Diskret sug‘orishda suv egatlarga tanaffus bilan berilib, uning dala bo‘ylab barobar harakatlanishiga erishiladi. Egiluvchan quvurlar ochiq ariqlardagi yo‘qotishlarni kamaytiradi.

Tahlillarga ko‘ra, zamonaviy sug‘orish usullari muayyan sharoitlarda suv sarfini 45-50 foizgacha, yoqilg‘i-moylash materiallari va mineral o‘g‘it xarajatlarini 25-35 foizgacha kamaytiradi. Hosildorlikni esa 15-20 foizgacha oshirish imkonini bermoqda. Shu ma’noda, suv tejamkorligi fermer uchun iqtisodiy manfaat ham keltiradi.

Suv tejamkorligi haqida gap ketganida, baliqchilikni rivojlantirish borasida to‘xtalib o‘tish zarur. Global iqlim sharoitida bu sohada ham zamonaviy texnologiyalar joriy qilish, suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifadir. Prezidentimizning 2026-yil 2-iyuldagi “Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu borada muhim huquqiy hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Unda intensiv usulda baliq yetishtirish, suv havzalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan.



Nukus tumanidagi “Jalal Qora Nukus” baliqchilik xo‘jaligida sohadagi yangi imkoniyatlar va suv resurslaridan samarali foydalanish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan ko‘rgazmali seminarda qayd etilganidek, Qoraqalpog‘istonda 2026-yilda 25 ming, 2027-yilda 35 ming tonna baliq yetishtirish maqsad qilingan. Bunda intensiv texnologiyalar joriy etish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish va suv obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga e’tibor berilyapti.

— Suv xo‘jaligi tashkilotlarining baliqchilikni rivojlantirishdagi mas’uliyatiga alohida e’tibor qaratyapmiz. Suv yetkazib berishda baliqchilik xo‘jaliklari bilan shartnoma asosida ishlayapmiz. Bunda intensiv usulda faoliyat yuritayotgan xo‘jaliklar ehtiyojini hisobga olib, suvni uzluksiz yetkazib berish muhim vazifamiz, — deydi Qoraqalpog‘iston suv xo‘jaligi vaziri Baxtiyor Yusupov. — Shuningdek, suv yetkazib berish ishlab chiqarish rejalariga moslangan. Bu ishlar isrofgarchilikning oldini olish va mavjud zaxiralardan maqsadli foydalanish imkonini beradi.

Intensiv usulda baliq yetishtiradigan xo‘jaliklarga quyosh panellarini sotib olib, o‘rnatish xarajatlarining 25 foizi, har bir kilovatt uchun 1 million so‘mdan oshmagan miqdorda subsidiya ajratish nazarda tutilgan. Muqobil energiya manbalari bilan jihozlangan zamonaviy aeratorlar xarajatlarining 50 foizi, biroq 5 million so‘mdan ko‘p bo‘lmagan qismi ham qoplab beriladi. Bunday imkoniyatlar o‘z-o‘zidan intensiv usulda baliq yetishtirishga qiziqishni kuchaytirib, tejamkor usulda ko‘proq mahsulot olishni kengaytiradi.

— Prezidentimiz farmoni baliqchilik sohasida bir qancha yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Jumladan, chetdan olib kelinadigan naslli ona baliqlar uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Chetdan ixtiolog mutaxassislar olib kelingani uchun ham oylik subsidiyalar beriladi. Hozir baliq yetishtirish yanada ko‘payib, sohada katta amaliy ishlar qilinmoqda, — deydi “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bo‘lim boshlig‘i Dulov Dovurov.

Farmon bilan O‘zbekiston Suv xo‘jaligi vazirligi huzurida Baliqchilikni rivojlantirish markazi tashkil etildi. U baliqchilik tarmog‘ida davlat boshqaruvini takomillashtirishga xizmat qiladi.

— Farmonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, baliq tannarxini barqaror saqlash chora-tadbirlari, baliqchilik xo‘jaliklari, subyektlarga imtiyozlar ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, xo‘jaliklarga 14 foizli kredit beriladi. Agar kredit 2 yillik muddatga olinsa, 9 oygacha to‘lovdan imtiyoz bor. Bu muddat xo‘jalik ortiqcha xarajatsiz baliq yetishtirib olishi, bozorga chiqargach, to‘lovni boshlashiga imkon beradi. Birdan daromadga kirmaydigan yo‘nalishdagi tadbirkorlikda bu juda muhim imtiyoz, — deydi O‘zbekiston Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Baliqchilikni rivojlantirish markazi Qoraqalpog‘iston bo‘lim boshlig‘i Davlatboy Usaqov.

— Kompaniyamizda ikki xil — favvorali va parrakli aeratorlar bor. Baliq boqiladigan ko‘llarda suvda cho‘kindi hosil bo‘lib, qatlamlarga bo‘linib qoladi. Aeratorlar bu qatlamni buzib, baliqlarga ko‘proq kislorod yetkazib beradi. Shu orqali 1 gektarda 10 tonnadan 15 tonnagacha baliq boqish imkoni paydo bo‘ladi. Biz o‘rnatgan aeratorlar 100 foiz quyosh panelida ishlaydi. Davlatimiz tomonidan aeratorlarni sotib olishda 5 milliongacha subsidiya ajratiladi, — deydi tadbirkor Nursulton Abduxoliqov. — Bunday moliyaviy qo‘llovlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suvdan oqilona foydalanish xavfsizlik masalasiga aylandi. Irrigatsiya tarmoqlarini yangilash va tejovchi texnologiyalarga o‘tish suv tanqisligining oldini oladi. Bu boradagi islohotlar esa qishloq xo‘jaligining barqaror kelajagini ta’minlaydi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

IMKONIYATDAN QUVVAT OLIB, MEHNATDAN BARAKA TOPDIK

Bundan chamasi o‘n yillar avval Muzrabot tumanini janubdan chegaralab oqqan ko‘hna Amudaryoga tutash chakalakzorga traktor soldik. Ekinga joy ochdik. Qumtepaga chiqib, atrofni kuzataman. Daryoning narigi tomonida Afg‘oniston qishloqlari chang va issiq hovurida g‘ira-shira ko‘zga tashlanadi.



Oybahor JABBOROVA,
Muzrabot tumanidagi “Norbek Alisher” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi rahbari

O‘zimiz tomonda, Muzrabot — Termiz yo‘nalishidagi avtomobil yo‘lidan o‘tkinchi borki, bir to‘xtab: “Hov Oybahor momo, nima qilyapsiz? Nafaqaga chiqib, gashtingizni surib yursangiz bo‘lmaydimi? Koshki edi, ming yildan buyon birov o‘zlashtirmagan joydan hosil ololsangiz?” deya gap tashlab o‘tadi.

Bunday gaplarni ko‘p eshitardim. Indamay qo‘yardim. 2016-yil oxirlari edi. Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan yerlardan, ko‘lmakli joylardan 60 gektar yer ochdik. Aytgancha, o‘sha yillari yangi fermer xo‘jaligini tashkil etganlarga aynan shu yerdan joy berishgan edi. Ko‘pchilik tashlab ketdi. Biz esa yillab mehnat qilib, uni unumdor yerga aylantirdik. Shaxsiy avtomashinamiz yo‘q edi. Shu sabab belga suv va non bog‘lab, qishloq oralab 15 kilometr piyoda yurib, dalamga yetib borardim. Ba’zan boshlab qo‘ygan ishimni tashlab ketishga or qilsam, gohida qiyinchiliklardan xo‘rligim kelardi. Endi o‘sha kunlarni kulib eslayman. Chunki biz — fermerlarning kosasi oqarib, shaxsiy hisobimizda milliardlab mablag‘ paydo bo‘ldi.

Bolalarimga bosh bo‘lib, “Norbek Alisher” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligini tashkil etdim. Paxtachilik, g‘allachilikni yo‘lga qo‘ydik. Yaxshi hosil ko‘targach, sholichilik va baliqchilikni boshladik. Garchi o‘zlashtirilgan hudud yirik daryoga yondosh bo‘lsa-da, qirg‘oq ancha pastlab ketgani bois, suv chiqarish imkonsiz edi. Bu masalani yechish uchun suv saqlash inshooti qurildi.

Hozir sholizorga aylangan keng maydonning ayrim joylari qum uyumlaridan iborat edi. Boz ustiga, ayrim joylarda sizot suvlardan paydo bo‘lgan o‘nlab katta-kichik ko‘l bo‘lardi. Shu bois, ish boshlaganimizda ko‘pchilik istehzo bilan qaragan edi. Shunda bir jihat menga ovunch bo‘lardi. Ya’ni to‘qayzor va ko‘l sabab unga yaqin joylashgan qishlog‘imizga hasharotlar ko‘p zarar yetkazardi. Tomorqaga ekilgan ekin hosilini yo‘qqa chiqarardi. Bundan aholining yuragi bezillardi, ammo yechimi haqida hech kim o‘ylamasdi. Yerni o‘zlashtirsak, hech bo‘lmaganda zararli hasharotlardan qutulamiz degan taskin bor edi. Mehnat qildik, maydonlar ochdik. Mana, nihoyat shunday qarovsiz joyni o‘zlashtirib, shu yerdan 45-50 sentnergacha hosil olyapmiz.

Muzrabot tumanidagi Fidokor mahallasida yashayman. Ammo meni axtarib keladiganlarga dalamiz manzilini aytaman. Negaki, to‘rt faslda ham keng paxtazor, g‘allazor va shovillagan sholizorlar oralab mehnat qilaman. Aslida, qariyb yarim asrdan buyon sholichilik bilan shug‘ullanaman. Ilgari birovning qo‘lida sholikor sifatida kichik maydonlarda ishlardik. Endi o‘zimiz guruchni xorijga eksport qilayotgan yirik tadbirkorga aylandik.

Yetishtirgan hosilimiz o‘zimizda ham, qo‘shni davlatlarda ham xaridorgir bo‘lib boryapti. Muhimi, bozor qidirmaymiz. Hosilni dala yoki omborimizdan yuklab olib ketishadi. Har yili 200 gektar yerga g‘alla ekamiz. Uning foydasi 300-400 million so‘mni tashkil etadi. Izidan sholi ekamiz. Undan oladigan daromadimiz esa ancha yaxshi. Bir necha yillardan buyon 1 milliard so‘mga yaqin foyda ko‘ryapmiz. Yaxshi daromad olish uchun yerdan mehrni ayamaslik kerak. Sholikorlik oz mehnat orqali katta daromad ko‘radigan ish emas. Uning ham o‘ziga yarasha qiyinchiligi, nozik jihatlari bor. Masalan, bug‘lanishni nazorat qilish, suv haroratini 60-65 darajada saqlash kerak. Surxondaryoning qumloq yerida buni uddalash oson emas. Bundan tashqari, sholi ozuqasiga, hasharotga chidamli ekaniga e’tibor berish zarur. Tizzagacha suv kechib, sholini begona o‘tdan tozalash mashaqqati ham bor.

Avval fermerlar o‘z daromadini, kamomadini qanday yopishni o‘ylardi. Yaratilgan imkoniyatlar sabab hozir fermerlar ishini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish haqida qayg‘urmoqda. Hozir fermer xo‘jaligimiz orqali 20 dan ortiq kishini ish bilan ta’minlaganmiz. Yaratilgan sharoitlarga “labbay”, deya javob berish uchun mehnat qilyapmiz. Joriy yil g‘alla rejasini tumanda birinchi bo‘lib bajardim. Sholichilikdan yuqori hosil ko‘tardik. Shu kunlarda chorvachilikni ham yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Mo‘g‘ulistondan chorva mollari olib kelib, bu faoliyatni ham boshlash arafasidaman.

2024-yil 15-avgustda Prezidentimizning “Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 2024-yil 1-sentyabrdan fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga sholi yetishtirish va xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun belgilangan shartlarda imtiyozli kreditlar ajratila boshlandi. 2025-2026-yillarda sholi ekish uchun xarid qilingan va ishlab chiqarilganiga bir yildan oshmagan yangi urug‘ seyalkalari hamda ko‘chatlab ekish uskunalari qiymatining 20 foizi subsidiya orqali qoplab beriladigan bo‘ldi. Har bir soha va tarmoq, yo‘nalishlar kesimida bunday qo‘llab-quvvatlovdan xursandmiz. Bu quvonchimizni esa o‘z mehnatimiz, yuqori natijalarimiz bilan izhor etishga ahd qilganmiz.

Sara va cho‘ntakbop, sifatli guruch izlab kelganlar: “Ishingiz besh, osh bo‘lsin, momo!” deydi. To‘ylarga borganimda “Zo‘r osh bo‘libdi. Oybahor momoning guruchidan-da!” deyishsa, ko‘nglim tog‘dek ko‘tarilib, charchog‘im chiqadi. Shunday paytlarda o‘zimcha: “Ko‘pning oshi — ko‘l, ozning oshi — cho‘l bo‘ladi”, deyman. Ko‘l deganda suv, hayot tushuniladi.

Yurtimizdagi imkoniyatlar, qo‘llovlar sabab ishimiz yurishib ketdi. Shu imkoniyat, e’tibor sabab faxr bilan yangi O‘zbekistonni yaratish yo‘lida birlashdik. Ko‘pning oshi — xirmonlarimiz barakasi shundan!



ENDI KARTOSHKANING PO‘CHOG‘I HAM PULLANADI

Ilgari biror talaba tegishli joylarga borib, “Kartoshka po‘chog‘i ustida tadqiqot o‘tkazyapman. Undan organik toza mahsulot olish mumkin” desa, ustidan kuladiganlar, “O‘qishingni eplasang-chi”, deydiganlar bo‘lardi. Bu bilan farzandimizning ich-ichidan jo‘shib kelgan g‘oyasiga qiziqib ham ko‘rmay, yaratuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqarishga imkon bermay, umidini so‘ndirar edik. Ko‘plab o‘rta avlod vakillari oiladagi bunday munosabatni afsus bilan eslab, agar o‘ziga qo‘yib berilganida, bugun hammasi boshqacha bo‘lishi mumkinligini aytib qoladi.



Bugunning yoshlaridan aynan tashabbuskorlik, yangi g‘oyalar, ixtirolar kutilyapti. Oilada ham to‘sqinlik yo‘q. Qobiliyatli bolani ota-onasi ruhlantirsa, qolganini davlatning o‘zi qo‘llab yuboryapti. Zero, davlat farzandini tushungan ota singari ezgu maqsadi yo‘lida salgina intilgan yoshlarni ham yaxshigina qo‘llayapti. Aks holda, talaba bo‘laturib, katta bir oilaning mas’uliyatini zimmasiga olgan Davron Polojonov shahardan uy olish haqida o‘ylab ham ko‘rmasdi. Ham ota, ham ona bo‘lib uni ulg‘aytirgan, boshini ikki qilgan onaizor yosh oila bilan ijarama-ijara yurib charchaganida “Ilohim, bolamning ishlari yurishsin, shu yerlardan boshpanali bo‘lsin”, deb duo qilardi.

Davron joriy yil avgustda bo‘lib o‘tgan “Kelajak muhandislari” ko‘rik-tanlovida o‘zining startapi bilan faxrli o‘rinni egallab, talaba uchun aytishga arzirli pul mukofotiga erishdi. Albatta, rag‘bat insonga kuch beradi, yangi g‘oyalar sari yetaklaydi. U ayni paytda kartoshka po‘chog‘idan ekologik paket tayyorlash ustida ishlayapti.

— Bir xitoylik olimning manioka o‘simligi yordamida biopaket olgani meni shu g‘oyaga ilhomlantirdi, — deydi Davron Polojonov. — O‘sha o‘simlikni o‘rganib bildimki, tarkibida kraxmal ko‘p bo‘lgani uchun loyihada foydalanish uchun qo‘l kelgan. O‘zbekistondagi qaysi mahsulot kraxmalga boy bo‘lishi mumkin? Albatta, kartoshka. Uning o‘zi emas, chiqindiga aylanayotgan po‘chog‘i xomashyo o‘rnida ishlatiladi. Masalan, chips mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalar uchun kartoshka po‘chog‘i shunchaki chiqindi. Biz ularni sotib olib, biopaket tayyorlamoqchimiz.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili qariyb 370 million tonna kartoshka yetishtiriladi. U 1 milliarddan ortiq insonning kundalik oziq-ovqat ta’minotida muhim o‘rin tutadi. Biroq uning po‘chog‘i chiqindiga aylanadi. Aslida, po‘choq tarkibida ham foydali xomashyo — kraxmal mavjud. Shu ma’noda, “InnoLab” startap akseleratsiya dasturi ishtirokchisi Davron Polojonovning ishlanmasi katta ahamiyatga ega. Vaholanki, bugun jahon olimlari o‘simlik va oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi mahsulotlar tayyorlash ustida izlanishlar o‘tkazyapti. Bu nafaqat chiqindini kamaytirish, balki resurslardan samarali foydalanishga ham xizmat qiladi. Kartoshka po‘chog‘i bilan bog‘liq loyihaning ahamiyati ham shunda. U oziq-ovqat chiqindilaridan qayta foydalanish va an’anaviy plastik paketlarga muqobil mahsulot yaratish imkoniyatini o‘rganadi. Zero, kartoshka po‘chog‘idan biomateriallar va qadoqlash vositalari tayyorlash imkoniyati ilmiy tadqiqotlarda ham o‘rganilmoqda.

Yosh ixtirochining aytishicha, ekologik paket olish uchun, birinchi navbatda, po‘choqni maydalab, unga suv qo‘shgan holda kraxmal ajratib olinadi. Qo‘shimcha moddalar qo‘shilib, quyuqlashguncha 80-90 daraja atrofida qizdiriladi. Bu jarayonda shilimshiq modda hosil bo‘ladi. O‘sha modda yoyilib quritilsa, biopaketga aylanadi. Jarayon 10 kundan 15 kungacha vaqt talab qiladi.

Aslida, bundan ko‘p vaqt ketsa ham ekologik toza mahsulotga nima yetsin. O‘sha tez muddatda tayyor bo‘ladigan plastik paketlar 500 yilgacha chirimasligi aytiladi. Chunonchi, bunday paketlar polimerdan ishlanadi. Biopaket esa kraxmaldan bo‘lgani uchun suv bilan tez reaksiyaga kirishib ketadi. Shuning uchun tez chirish xususiyatiga ega. Ya’ni chirish muddati 50 kundan 70 kungacha boradi. Loyiha tashkilotchilarining aytishicha, chirish jarayoni bundan ham tezlashishi mumkin. Bunga esa bemalol ekologik muammolarga yechim sifatida qarasa bo‘ladi.

Raqobatchilar faoliyati o‘rganiladigan bo‘lsa, O‘zbekistonda issiqlik orqali titiladigan paket ishlab chiqarilgan. Davron Polojonov taklif qilayotgan paket esa namlikdan parchalanadi. Undan bemalol bozorlar, supermarketlar va boshqa korxonalarda foydalanish mumkin. Qolaversa, yangi mahsulot biopolimer paketlarga nisbatan ancha arzon bo‘ladi. Chunki bioplastik va biopolimer paketlar uchun xomashyo sotib olinadi. Kartoshka po‘chog‘i esa chiqindi bo‘lgani uchun plastik mahsulotdan bir necha barobar arzon. Paket 3 kilogrammdan 5 kilogrammgacha yukni ko‘tara oladi.

— 100 gramm kraxmal va 100 gramm mahsulotimizdan 1 kvadrat metr atrofida paket tayyorlasa bo‘ladi. Cho‘zish orqali uni yanada kattalashtirish mumkin, — deydi suhbatdoshimiz.

Mahsulot jarayonlardan muvaffaqiyatli o‘tsa, kelasi yildan patentlashtirish ko‘zda tutilyapti. Hozircha mahsulotga qandolat do‘konlaridan talab bo‘lyapti. O‘ylaymizki, mahalliy va ekologik toza mahsulot yaqin kelajakda o‘zining har tomonlama qulay ekanini amalda ko‘rsata oladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Suhbat



TEXNOLOGIK TARAQQIYOT DAVRIDA O‘ZGARAYOTGAN TABIAT QONUNIYATLARI VA INSON MAS’ULIYATI

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati bosh muharriri Salim DONIYOROVning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori, biologiya fanlari doktori, akademik Komiljon TOJIBOYEV bilan suhbati

Boshlanishi 1-betda



— Botanika va biologiyani ko‘pincha tabiatni o‘rganuvchi fanlar sifatida tasavvur qilamiz. Vaholanki, bu sohalardagi tadqiqotlar oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o‘zgarishiga moslashish, umuman, insoniyatning kelajagi bilan bevosita bog‘liq. Sizningcha, bugun o‘simliklar dunyosini o‘rganish va biologik xilma-xillikni saqlashning ahamiyatini jamiyat yetarlicha anglayaptimi?

— O‘simliklar xilma-xilligini o‘rganishni insoniyatning ertangi kunini ta’minlaydigan eng muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri deb bilaman. To‘g‘ri aytdingiz: bugungi oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti va kelajakdagi iqlim sharoitlariga moslashish imkoniyatlarimiz ko‘p jihatdan tabiatda saqlanib qolgan biologik resurslarga bog‘liq. Masalan, qishloq xo‘jaligidagi yangi navlarni olaylik. Seleksionerlar oldida hosildorlikni oshirish bilan birga yuqori harorat, suv tanqisligi, tuproq sho‘rlanishi va turli kasalliklarga chidamli navlar yaratish vazifasi turibdi. Xo‘sh, bunday xususiyatlarni qayerdan olamiz? Ularning muhim manbalaridan biri madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari va yaqin qarindoshlaridir.

Gap shundaki, yovvoyi o‘simliklar uzoq evolyutsion jarayonlar davomida turli tabiiy sharoitlarga moslashgan. Ularning irsiy xususiyatlarida madaniy navlarda yetishmaydigan ayrim belgilar saqlangan bo‘ladi. Olimlar ana shu xususiyatlarni o‘rganib, seleksiya jarayonida foydalanish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Buning amaliy natijalari ham bor. Masalan, bug‘doyning yovvoyi qarindoshlariga xos irsiy resurslardan kasalliklarga chidamlilikni oshirish va hosildorlik xususiyatlarini yaxshilash bo‘yicha seleksiya ishlarida foydalanilgan. Demak, bugun tabiatda saqlanayotgan biror o‘simlikning irsiy xususiyati ertaga dehqonchilik uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Tabiatda tirik organizmlar bir-biridan ajralgan holda yashamaydi. Masalan, o‘simliklarning ko‘payishida changlatuvchi hasharotlarning o‘rnini olaylik. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda yetishtiriladigan oziq-ovqat ekinlari turlarining taxminan 75 foizi hasharotlar va boshqa jonivorlar orqali changlanishga u yoki bu darajada bog‘liq. Changlatuvchilarga bog‘liq ekinlar jahon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining taxminan 35 foizini tashkil etadi.

Bu raqamlar nimani ko‘rsatadi? Biz, masalan, mevali daraxtlarni parvarishlash, sug‘orish, hosildorligini oshirish haqida o‘ylaymiz. Lekin shu daraxtlarning gulini changlatadigan hasharotlar, ularning yashash muhiti haqida ham o‘ylashimiz kerak. Chunki changlatuvchilarning kamayishi ayrim ekinlarning hosili va mahsulot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xuddi shunday: tuproqdagi mikroorganizmlar ham o‘simliklar hayotida muhim vazifalarni bajaradi. Ular organik moddalarning parchalanishi, ozuqa elementlarining aylanishi va tuproq unumdorligini ta’minlashda ishtirok etadi. Tabiiy ekotizimlardagi bunday aloqalarning buzilishi qishloq xo‘jaligiga, umuman, sivilizatsiyaga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuning uchun biologik xilma-xillikning kamayishini faqat muayyan o‘simlik yoki hayvon turining yo‘qolishi bilan baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biz o‘sha turning boshqa organizmlar bilan bog‘liq vazifalarini ham hisobga olishimiz kerak. Ayrim turlarning kamayishi changlanish, tuproq unumdorligi, tabiiy zararkunanda nazorati kabi jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Menimcha, bugun jamiyatimizda aynan shu bog‘liqlikni chuqurroq anglashga ehtiyoj bor. Chunki iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilikning kuchayishi sharoitida tabiiy ekotizimlarning barqarorligi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yaylovlar va o‘rmonlardagi o‘simlik qoplamining saqlanishi, tabiiy xilma-xillikning kamaymasligi qishloq xo‘jaligi uchun ham katta ahamiyatga ega.

— Bugun biz yirik inshootlar qurayapmiz, daryolar o‘zanini o‘zgartiryapmiz, tabiiy resurslardan foydalanishning yangi usullarini o‘zlashtiryapmiz. Biroq tabiatga ta’sir ko‘rsata olish uning barcha qonuniyatlarini anglab yetganimizni bildirmaydi. Sizningcha, insoniyat bu farqni yetarlicha his qilyaptimi? Qabul qilinayotgan qarorlarda tabiatning imkoniyatlari va cheklovlari qanchalik hisobga olinyapti?

— Bu farq anglanyapti, albatta. Lekin uni amaliyotda, ayniqsa, muhim qarorlarni qabul qilishda yetarlicha hisobga olyapmiz deb aytish qiyin. Bugun insonning texnik imkoniyatlari nihoyatda kengaydi. Biz tabiiy jarayonlarga aralashamiz, ularning yo‘nalishini muayyan darajada o‘zgartira olamiz. Ammo bu aralashuv qanday ekologik oqibatlarga olib kelishini hamisha ham oldindan to‘liq bilmaymiz. Tabiatdagi jarayonlar bir-biri bilan shunchalik chambarchas bog‘langanki, muayyan hududdagi o‘zgarishning ta’siri boshqa joyda, hatto ancha vaqt o‘tgandan keyin ham namoyon bo‘ladi.

Albatta, dunyoda bu masalaga jiddiy yondashayotgan mamlakatlar bor. Masalan, ayrim Skandinaviya davlatlarida tabiiy muhitga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qarorlarning biologik va ekologik asoslariga katta e’tibor qaratiladi. Ya’ni muayyan loyihaning iqtisodiy samarasi bilan birga tabiatga ta’siri ham ilmiy jihatdan baholanadi. Bu juda muhim yondashuv.

Biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlari bo‘yicha hukumatlararo ilmiy-siyosiy platformaning 2019-yilda e’lon qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda qariyb bir million o‘simlik va hayvon turi yo‘qolib ketish xavfi ostida. Bir million tur! Bu raqamning o‘ziyoq insoniyatning tabiatga ta’siri qanchalik jiddiy tus olganini ko‘rsatadi.

Ayrim ekotizimlarda allaqachon qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar yuz beryapti. Bunga iqlim o‘zgarishi ham, insonning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida ko‘rsatayotgan bosimi ham sabab bo‘lmoqda. Eng yomoni, ba’zi yo‘qotishlarni keyinchalik katta mablag‘ sarflab ham tiklay olmasligimiz mumkin.

Shuning uchun har qanday yirik loyihani amalga oshirishdan oldin uning tabiiy muhitga ta’sirini chuqur o‘rganish zarur. Bu jarayonda biologlar, ekologlar va boshqa soha olimlarining xulosalariga tayanish kerak. Qaror qabul qilinganidan keyin salbiy oqibatlarini bartaraf etishga urinishdan ko‘ra, o‘sha oqibatlarni oldindan baholash ancha samarali.

— O‘zbekiston o‘simliklar dunyosi boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, bu boylik bir necha yuz yilda shakllanib qolmagan. Uning ortida murakkab geologik, iqlimiy va evolyutsion jarayonlar turibdi. Sizningcha, mamlakatimiz florasini o‘rganish orqali tabiatimizning hali to‘liq anglanmagan qanday sirlarini ochish mumkin? Bu borada zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bizga qanday imkoniyatlar beryapti?

— O‘zbekiston florasini mamlakatimizning tabiiy tarixini saqlab turgan tirik arxiv deb atasa bo‘ladi. Chunki bugun qaysi hududda qanday o‘simliklar o‘sishi, ularning bir-biri bilan qarindoshligi, tarqalish xususiyatlarini o‘rganish orqali o‘tmishda kechgan juda ko‘p jarayonlar haqida xulosa chiqarish mumkin.

Hozir bu yo‘nalishdagi tadqiqot imkoniyatlari ancha kengaydi. Ilgari olimlarimiz dala kuzatuvlari o‘tkazib, o‘simlik namunalarini to‘plar, ularni gerbariylarda saqlar, tarqalish hududlarini xaritalarda belgilab borardi. Bugun esa ana shu ma’lumotlarni raqamlashtirish, har bir o‘simlik namunasi topilgan joyni aniq geografik koordinatalar bilan bog‘lash imkoniyatiga egamiz. Ilmda bu jarayon geobog‘lash deb ataladi. Buning ahamiyati nimada? Bir qarashda oddiy ma’lumotlarni elektron shaklga o‘tkazishdek tuyulishi mumkin. Aslida esa biz shu orqali butunlay yangi tahlil imkoniyatlariga ega bo‘lyapmiz.

Masalan, katta hajmdagi geobog‘langan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mamlakatimizning qaysi hududida o‘simlik turlari ko‘proq jamlangani, qaysi joylar yetarlicha o‘rganilgani, qayerlarda esa hali ilmiy ma’lumotlar kamligini aniq ko‘rishimiz mumkin. Bu keyingi tadqiqotlarni rejalashtirishda ham juda muhim.

Endi tasavvur qiling: shu ma’lumotlarga zamonaviy DNK tahlillari natijalarini ham qo‘shdik. O‘simliklarning evolyutsion shajarasi, ya’ni turlar o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini o‘rgandik. Shunda yanada qiziq manzara namoyon bo‘ladi. Qaysi hududlarda qadimiy evolyutsion tarmoqlar saqlanib qolgan, qayerlarda nisbatan yosh turlar shakllangan, ayrim o‘simliklar qanday qilib bugungi tarqalish hududiga yetib kelgan — shularga ilmiy javob topa olamiz. Bunday ma’lumotlarni oddiy o‘simliklar ro‘yxatidan ma’lumotlarga ko‘ra, keyingi oltmish yilda mamlakatimizda o‘rtacha yillik harorat 1,6 daraja ko‘tarilgan. Orolbo‘yi mintaqasida esa bu ko‘rsatkich 1,8-2,5 darajaga yetgan. E’tibor bering: gap iqlimning o‘rtacha ko‘rsatkichlari haqida ketyapti. Demak, ayrim yillar va mavsumlarda tabiiy muhit bundan ham keskin o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin.

O‘simliklar uchun buning oqibati qanday? Harorat ko‘tarilgani sari tuproqdan bug‘lanish kuchayadi, o‘simliklarning suvga ehtiyoji va namlikdan foydalana olish sharoiti o‘zgaradi. Ayniqsa, yog‘ingarchilik kam bo‘lgan cho‘l va yarimcho‘l mintaqalarida bu muhim. Muayyan turning o‘sishi, gullashi, urug‘ hosil qilishi uchun qulay davr qisqaradi. Bu esa uning tabiiy ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi atlasda O‘zbekiston yaylovlarining 60 foizida mahsuldorlik pasayishi qayd etilgan. Albatta, bu holatni faqat iqlim o‘zgarishi bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chorva mollarini me’yoridan ortiq boqish, yerdan foydalanish tartibi, o‘simlik qoplamining buzilishi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun biz yaylovlarni o‘rganganda qaysi o‘simliklar kamaygani, ularning o‘rnini qanday turlar egallayotgani, tuproq va namlik sharoiti qay darajada o‘zgarganini birgalikda tahlil qilishimiz kerak.

Yana bir jiddiy masala — tarqalish hududi juda cheklangan o‘simliklarning taqdiri. Masalan, Qizilqumdagi Tomditov tog‘larida uchraydigan Astragalus centralis degan o‘simlik turi bor. U O‘zbekistonga xos endem tur. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, hozir uning faqat bitta tabiiy populyatsiyasi ma’lum. O‘simlik soni nihoyatda kam. Uning yashash muhitiga ohaktosh qazib olish, chorva boqish, iqlim o‘zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalari ta’sir ko‘rsatmoqda.

Endi o‘ylab ko‘ring: bunday turni qayerdan qayta topamiz? Agar u tabiatda butunlay yo‘qolsa, dunyoning boshqa hududidan olib kelib, o‘rnini to‘ldirish imkoniyati yo‘q. Demak, bu yerda faqat o‘simlikning tarqalish xaritasini tuzish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Uning tabiiy ko‘payishi, populyatsiya holati, urug‘idan ko‘paytirish imkoniyatlari va yashash muhitini muhofaza qilish bo‘yicha alohida tadqiqotlar zarur.

Tog‘ o‘simliklari bilan bog‘liq yana bir murakkablik mavjud. Iqlim isishi bilan ayrim turlarning yashashi uchun qulay sharoit balandroq hududlarga siljishi mumkin. Lekin tog‘ning yuqori qismida o‘sadigan turlar uchun bunday imkoniyat cheklangan. Muayyan balandlikdan keyin ular ko‘tariladigan boshqa tabiiy muhit qolmaydi. Bu, ayniqsa, faqat muayyan tog‘ tizimida uchraydigan endem o‘simliklar uchun jiddiy xavf. Xalqaro iqlim tadqiqotlarida ham shu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, biologik resurslarni saqlashning ikki muhim yo‘li bor. Birinchisi — o‘simliklarni o‘zining tabiiy yashash muhitida muhofaza qilish. Ikkinchisi — ularning urug‘lari va boshqa irsiy materiallarini maxsus kolleksiyalar, genbanklarda saqlash. Bu usullar bir-birini to‘ldiradi. Chunki o‘simlikning urug‘ini saqlab qolishimiz mumkin, biroq uning tabiatdagi populyatsiyasi yo‘qolsa, o‘sha turning tabiiy sharoitda davom etadigan evolyutsion va moslashuv jarayonlari ham uziladi.

Bularning barchasi oziq-ovqat xavfsizligi uchun ham ahamiyatli. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yovvoyi qarindoshlarida issiqlik, qurg‘oqchilik va kasalliklarga chidamlilik bilan bog‘liq irsiy xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Ularni saqlash va o‘rganish seleksionerlarga kelajakda yangi navlar yaratish uchun qo‘shimcha imkoniyat beradi.

— Mamlakatimizda noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simliklarni muhofaza qilishda “Qizil kitob” alohida ahamiyatga ega. Uning kadastrini yuritish ham institutga yuklatilgan. Ayting-chi, bugun O‘zbekistonda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simliklarning holati qanday? Ularni asrab qola olmasak, qanday oqibatlarga duch kelamiz?

— Bu savolga ham mamnuniyat, ham katta mas’uliyat bilan javob beraman. Chunki yaqinda O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining oltinchi nashrini tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yakunladik. Bu jarayonda ilgari qilingan ishlardan farqli ravishda, o‘simlik turlarining tabiatdagi haqiqiy holatini kompleks baholashga alohida e’tibor qaratildi.

Bilasizmi, mamlakatimizda “Qizil kitob”ning o‘simliklarga bag‘ishlangan birinchi nashri 1984-yilda chop etilgan. Oradan qirq yildan ortiq vaqt o‘tdi. Shu davrda tabiiy muhitda ham, o‘simliklar dunyosini o‘rganish imkoniyatlarida ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. Eng muhimi, bugun bizda turlarning yo‘qolib ketish xavfini xalqaro ilmiy mezonlar asosida baholash imkoniyati mavjud.

Oltinchi nashrni tayyorlash doirasida ilk bor o‘simliklar populyatsiyasining holatini kompleks o‘rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar o‘tkazildi. Bu ishlar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining maqsadli moliyalashtirishi asosida bajarildi. Bunda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN)ning amaldagi toifa va mezonlariga tayandik.

Nima uchun bu muhim? Chunki o‘simlik turini “Qizil kitob”ga kiritishda uning kam uchrashi haqidagi umumiy tasavvurning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Uning tabiiy populyatsiyasi qanday holatda, yo‘qolib ketish xavfi qay darajada ekanini ilmiy asosda baholash zarur. Ana shu yondashuv tadqiqotlarimizning muhim jihatlaridan biri bo‘ldi.

Xorijlik hamkorlarimiz bilan birga o‘tkazgan tadqiqotlar natijalari nufuzli Biological Conservation xalqaro ilmiy jurnalida ham e’lon qilindi. Bu, albatta, mamlakatimizda biologik xilma-xillikni o‘rganishga doir izlanishlarning xalqaro ilm-fan uchun ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Endi raqamlarga e’tibor bering. Yangilangan ro‘yxatga 317 o‘simlik turi va kenja turi kiritildi. Ularning 207 tasi O‘zbekiston endemlaridir. Ya’ni bu o‘simliklarning tabiiy tarqalish hududi faqat mamlakatimiz bilan cheklangan.

Bir o‘ylab ko‘ring-a, 207 endem tur! Bu raqamning ortida qanchalik katta mas’uliyat turganini his qilishimiz kerak. Chunki O‘zbekistonga xos biror endem tur tabiatdan butunlay yo‘qolsa, bu faqat mamlakatimiz uchun yo‘qotish bo‘lib qolmaydi. O‘sha tur butun dunyo o‘simliklar olamidan ham yo‘qoladi. Uni boshqa mamlakatning tabiatidan topish imkoniyati yo‘q.

Ayniqsa, tarqalish hududi juda tor bo‘lgan turlarning taqdiri jiddiy tashvish uyg‘otadi. Agar o‘z vaqtida samarali muhofaza choralarini ko‘rmasak, ularni butunlay boy berishimiz mumkin. Bunda biz faqat muayyan o‘simlik turini yo‘qotmaymiz. Uning uzoq evolyutsiya davomida shakllangan, boshqa turlarda takrorlanmaydigan irsiy xususiyatlari ham birgalikda yo‘qoladi.

Masalaning xalqaro mas’uliyat bilan bog‘liq jihati ham bor. O‘zbekiston Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilgan. Shu orqali mamlakatimiz o‘z hududidagi o‘simlik va hayvonot turlari, tabiiy ekotizimlarni saqlash bo‘yicha muayyan xalqaro majburiyatlarni qabul qilgan. Bu majburiyatlarning bajarilishi mamlakatimizning xalqaro nufuzi, ishonchli hamkor sifatidagi obro‘si uchun ham ahamiyatli.

— Ilm-fan taraqqiyoti haqida gap ketganda, yosh tadqiqotchilarning o‘rni va salohiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Sizningcha, bugun yosh olimlarimizning ilmiy izlanishlari zamonaviy muammolar bilan qay darajada bog‘langan? Ularning tadqiqotlari xalqaro ilm-fanda raqobatlasha oladimi? Bu boradagi holatga qanday baho berasiz?

— Bilasizmi, bu savol ko‘p beriladi. Lekin men bu masalaga bir oz boshqacharoq qarayman. Avvalo, “yosh olimlar” degan tushunchaning o‘ziga munosabatimizni qayta ko‘rib chiqishimiz kerak deb o‘ylayman.

Nega bunday deyapman? Chunki biz hali ham ilm-fanni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish haqida gapirganda, ayrim hollarda ancha avval shakllangan tasavvurlardan kelib chiqyapmiz. Bugun dunyo ilm-fani qanday ishlayapti, ilg‘or ilmiy muassasalarda tadqiqotlar qanday tashkil etilyapti, olimlardan qanday natijalar talab qilinyapti — mana shu savollarga e’tibor qaratishimiz zarur. Masalan, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH yoki Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi ilg‘or ilmiy muassasalar faoliyatini olaylik. U yerlarda tadqiqotlarga yosh olimlarning ishi yoki katta olimlarning ishi degan mezon bilan yondashilmaydi. Ilmiy jamoaning har bir a’zosi oldiga muayyan vazifa qo‘yiladi, undan tegishli natija kutiladi. Olimning yoshi uning ilmiy ishiga qo‘yiladigan talabni o‘zgartirmaydi.

Endi shu nuqtai nazardan o‘z institutimizga qaraylik. Bugun Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy xodimlarining o‘rtacha yoshi 37 atrofida. Qirq yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilar esa jami ilmiy xodimlarning 70 foizini tashkil etadi. Demak, biz institutdagi tadqiqotlarni yosh olimlar ishlaridan alohida ajratib baholaydigan bo‘lsak, muassasamiz faoliyatining asosiy qismini shu toifaga kiritishimizga to‘g‘ri keladi.

Botanika instituti 2022-yilda ilmiy-tadqiqot muassasalarining milliy reytingida birinchi o‘rinni egallagan. Hozir ham Fanlar akademiyasi institutlari orasida yetakchilar qatoridamiz. Bu natijalarni faqat yosh tadqiqotchilar yoki katta avlod olimlarining alohida yutug‘i sifatida ko‘rsatishni to‘g‘ri deb bilmayman. Ular butun ilmiy jamoaning mehnati samarasidir. Albatta, yoshlarning o‘ziga xos ustunliklari bor. Ayniqsa, yangi ilmiy usullarni o‘zlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni tadqiqotlarga joriy etishda ularning imkoniyatlari katta. Buni faoliyatimizda ham ko‘ryapmiz.

Masalan, mening ilmiy yo‘nalishimda florani to‘r tizimi asosida xaritalash usuli qo‘llanadi. Yosh tadqiqotchilarimiz bu usulni juda tez o‘zlashtirdi. Keyin uning asosida filogenetik xilma-xillik, filogenetik endemizm kabi zamonaviy ilmiy yondashuvlarni ham tadqiqot amaliyotiga kiritishdi. Ana shu yondashuvlar orqali o‘simliklar dunyosini, turlarning evolyutsion qarindoshligini va hududlar bo‘yicha tarqalish xususiyatlarini yanada chuqur tahlil qilish imkoniyati kengaydi. Bunday tadqiqotlar mintaqaviy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh ilmiy natijalar olishimizga xizmat qilyapti.

Xo‘sh, bu natijalarning xalqaro e’tirofini nimada ko‘rish mumkin? Odatda biz nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar soni, ularning impakt-faktori kabi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratamiz. Bular, albatta, muhim. Lekin ilmiy muassasaning xalqaro maydondagi o‘rnini faqat shu raqamlar bilan baholash yetarli bo‘lmaydi. Masalan, Toshkentda yirik xalqaro anjumanlarni o‘tkazish bo‘yicha takliflar bildirilmoqda. Shular qatorida 2026-yilgi birinchi xalqaro Global Tulipa Symposium, shuningdek, 2029-yilda GBIF Boshqaruv kengashi yig‘ilishini o‘tkazish bilan bog‘liq tashabbuslarni aytish mumkin. Olimlarimizning nufuzli xalqaro ilmiy anjumanlarga taklif etilayotgani ham e’tiborga molik. Bu kabi jarayonlar mamlakatimizda o‘tkazilayotgan tadqiqotlarga xalqaro ilmiy hamjamiyatning qiziqishini ko‘rsatadi. Shuning uchun yosh olimlarning ishiga baho berishda, eng avvalo, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug‘ullanayotgani, qanday usullardan foydalanayotgani va erishayotgan natijalariga qarashimiz kerak. Ularni ilmiy jamoaning to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilish muhim.

Men yoshlarimizning imkoniyatlariga katta ishonch bilan qarayman. Bu ishonch ularning faqat yoshligiga asoslangani yo‘q. Bugungi ilmiy natijalari, zamonaviy tadqiqot usullarini o‘zlashtirish sur’ati va xalqaro maydonga chiqayotgani bunga asos bo‘lyapti. Endi ana shu salohiyatdan yanada unumli foydalanishimiz kerak.

— Mazmunli suhbat uchun rahmat.



Ko‘ngildagi bitiklar

JANNAT ONALAR OYOG‘I OSTIDA

Sandiqqa sig‘maydigan tugun

Qudaoyimlarni ostonada quchoq ochib kutib olib, ularning boshidan sochqi — shirinliklar sochish, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib turgan qator mezbonlar bilan ko‘rishib o‘tgan mehmonlarni yelkasiga sochiq tashlab olgan chaqqon, xushro‘yu xushmuomala juvonning o‘ng qo‘lida obdastayu chapida chilopchin bilan kutib olib, qo‘llariga suv quyib sochiq tutishi. Qudaposhshalar dasturxon tuzalgan uyga kirib o‘tirganidan keyin esa yana boshqa bir dilbargina ayolning otashkurakda isiriq tutatib kirib, davrani aylantirib chiqishi — vodiy to‘ylarining, nima desam ekan, tashqi ko‘rinishiyu ichki mohiyati go‘zal odatlaridan.

Bu xalqona an’analar ijrochilariga mukofot ham bor, albatta. Ya’ni mehmonlar bu udumlarni bajaruvchilarga sovg‘alar beradi: kimdir mato, kimdir ro‘mol yoki sochiq, yana kimdir ko‘nglidan chiqarganicha pul.

...Mehmonga kelgan onasi bilan yaqin qarindoshinikida bo‘ladigan to‘y haqida gaplashib o‘tirgan ayol birdan hushyor tortdi:

— Hay, men to‘yga olib boradigan latta-puttamni tayyorlab qo‘ymabman-ku. Yuring, sandiq ochamiz.

Ona ikkita o‘g‘lini ketma-ket uylantirgan qizining sandig‘i ancha bo‘shab qolgan degan xayolda edi. Yo‘q, chinor daraxti taxtasidan yasalgan qadimiy sandiqdan ancha-muncha tugunlar olindi va gilam ustiga qatorlashtirildi. Ularni bir-bir ochib ko‘rarkan, uy bekasi to‘y qilayotgan xolavachchasiga kiyimlik, keyin esa o‘sha sochqi sochuvchilarga, qo‘lga suv quyadiganu isiriq soladiganlarga berish uchun matoyu durra va ro‘mol saralay boshladi. Shu payt bir tugundan ko‘zga tashlangan, pistamag‘iz rangli yumshoq so‘lqillama matoni ko‘rgan onaning ichida nimadir jizillaganday bo‘ldi: “Voy, anuvi mato haliyam shu yerda ekan...”.

Bir necha yil oldin xuddi shu chiroyli, ona juda yoqtiradigan rangda bo‘lgan ayni matoni qizining o‘zi sotib olganmi yoki unga kimdir sovg‘a qilganmi — bunisini bilmaydi... Xullas, qizining tugunida shu matoni birinchi marta ko‘rganida ona havasini yashira olmagandi. Ammo bolasi buni sezmadimi yoki e’tibor bermadimi, matoni yana tugunga tugib, sandiqqa solib qo‘ygach, ona o‘zini ayblagandi: “Kap-katta xotin yosh boladek har narsaga havas qilaverasanmi?”. Lekin anchagacha o‘sha mato ko‘z oldidan ketmay yurdi, bozordan olay desa, pensiyasi tirikchilikning kundalik tashvishlariga taqsimlab bo‘lingan...

Bir kosa issiq taom

O‘g‘li sotib olgan zotdor g‘unajinlarning ketma-ket ko‘zi yoridi. Buzoqlar ham onasiga tortgan: oyoqlari uzun-uzun, peshonasi keng, ko‘zlari katta-katta. Hamma xursand. Ayniqsa, ninaga termilib, chevarlik bilan katta qilgan yolg‘iz o‘g‘lining biri ikki bo‘layotganidan, ro‘zg‘origa qut-baraka kirayotganidan keksa onaning tiliyu dilidan shukrona va duo arimaydi.

Yaqindagina kechayu kunduz buvisidan ajralmay, issiqqina bag‘riga biqinib yurgan, kampir erkalatib, orzu-havaslar bilan chinnidek ko‘rpa-to‘shaklarda alla aytib katta qilgan nabiralar bugun hunarmand bo‘lgan. Aka-ukalar endi pultopar, anuvi sigirlar ham ularning daromadiga kelgan.

Uchta sigiru buzoqning tashvish-ishlari o‘g‘il uchun kun bo‘yi tinimsiz mehnat edi: jonivorlarning tagini tozalaydi, o‘t-suv beradi, somon ivitib yem tayyorlaydi, mollarning terisini qashlaydi. O‘ziyam molmisan mol ekan-da! Bu qarovlardan ular kun sayin o‘sayotgandek, terilari quyoshda yaltillaydi. O‘g‘lining kayfiyati ko‘tarinki; ona uning har safar molxona tarafdan chaqqon qadamlar bilan, kulimsirab qaytayotganini ko‘rib, yana shivirlaydi: “Allohim, o‘zingga shukr, beadad shukr!”.

Ona faqatgina keksalik tufayli o‘g‘liga yordam berolmayotganidan, og‘irini yengil qilishga qurbi yetmayotganidan o‘ksinadi. “Qarilik — xursandchilik emas”, deganlari shu bo‘lsa kerak: tungi uyqu quvvat beradimi, ertalab har qalay qo‘l-oyog‘ida bir oz kuch, ko‘zlarida nur paydo bo‘lgandek tuyuladi. Saksondan o‘tdi. Bora-bora ishtaha ham yo‘qolarkan: onaga nonushtayu tushlikda bir burda nonu ikkita turshakmi yoki bir shingil uzummi, shu kifoya. Asrga yaqin umr ko‘rgan ko‘zlari xiralashganday, yelkalari og‘irlashganday bo‘ladi... Toki kelin ishdan kelib qaynatgan qozonning yarim kosa issiq ovqatini tamaddi qilmaguncha yotib oladi, ahvol shu...



Muhtarama ULUG‘OVA,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

To‘y arafasida

Singlisinikida ikki kun mehmon bo‘lib qaytgan buvijon darvozadan kirgach, birdaniga o‘z uyini taniy olmay qoldi: hovlining bir chekkasida joylashgan, tashqarisi bilan ichkarisini to‘rt enlik yog‘och po‘saxona ajratib turadigan bitta derazali uyining devorlari oppoq oqlangan, romlari esa moviy rangga yangidan bo‘yalgan edi. Ichkariga kirgach, onaxonning hayrati va hayajoni yanayam oshdi: devorlar oqlangan, hatto o‘lsa yitmas taqir gilamning rangi ham tiniqlashgan — yuvishibdi-da. Eshikdan ichkariga kirishdagi yarim quloch joyga gilamcha to‘shab qo‘yishibdi. Dili yorishib ketdi.

Har bahoru kuzda albatta uy ko‘tarib, ko‘rpa-to‘shaklarini oftobga yoygan, shakarkir bo‘lganlarining ham astar-avrasini yuvib, paxtasini qayta tittirib qoplagan, uyning shiftini uzun supurgining ustiga ho‘l latta boylab tozalab chiqqan, deraza oynalarini hafta-o‘n kunda yaraqlatib artib o‘tirgan damlariga qaytgandek bo‘ldi. Ko‘zlari namlandi hatto. O‘g‘li va kelinini alqadi:

— Baraka topinglar-ey, bolalarim. Yaxshiyam sizlar bor ekansiz. Shundoq to‘y tashvishlari ichida mening uyimni ham anuvi g‘ishtin, tomi baland uylaring qatoriga kiritib qo‘yibsizlar. Shu paytgacha kelgan-ketganlar kelinning mehmonxonasidan kuzatilardi. Endi... To‘ychilik-da, bilib bo‘ladimi, quda yoki ular bilan kelgan mehmonlardan birortasi mening uyimgayam kirib qolishi mumkin-da. Qanday yaxshi bo‘pti-ya! Nabiram tushgan joyida baxtli yashasin, iloyim...

Bola qalbi

Ikkita qizining farzandlari bilan ketma-ket kirib kelishi ona uchun kutilmagan suyunchi bo‘ldi. Tez-tez kelaverishmasa, o‘z uylarida tinch-totuv o‘tirishganidan xursand bo‘ladi-yu, baribir sog‘inadi-da. Bugun ham jigarbandlari ko‘zidan o‘tib turgandi, mana, birdaniga uyini to‘ldirishdi.

Hol-ahvol so‘rashib, bir oz gaplashib o‘tirishganidan keyin ona asta gap soldi:

— Go‘sht, yog‘, masalliqlar — hammasi bor. Kun ham peshinga yaqinlashyapti. O‘zlaring xohlagan biror ovqatni pishirasizlarmi?

Bu savolga javoban opa-singil bir-birlariga qaradi. Oraga jimlik cho‘kdi. Ona aytgan gapining biror noo‘rin yoki noqulay jihati yo‘qligidan ularga hayron qarab turdi-da, birdan nimanidir anglagandek bo‘ldi:

— Ha-a... sizlar ham charchagansizlar. Tushlikka tayyor ovqat buyuraylik bo‘lmasa?..

Opa-singilning yuzida o‘zgarish bo‘lmadi. Katta qiz bir oz taraddudlanganday o‘ylanib turdi-da, keyin shartta gapirdi:

— Biz bolalarni parkda o‘ynatib, o‘sha joydagi kafeda ovqatlanishga va’da berib qo‘ygandik.

— Ha, mayli, — dedi ona. — Lekin tushlik vaqti ham yaqinlashib qoldi-ku. Yengilroq bo‘lsayam, biror narsa pishirib, tamaddi qilib olinglar.

— Biz u kafedan joylarni buyurtma qilib qo‘ygandik, yarim soatlarda o‘sha yerda bo‘lishimiz kerak, — dedi kichkina qizi. — Yuring, ona, siz ham boring...

Ona egniga qaradi. Yarim soatda yetib borishlari kerak bo‘lsa, u taraddud qilgunicha, bular aytilgan vaqtdan kech qolishlari mumkin. Qolaversa, sayilgohdagi o‘yingohlarning hammasi yoshlarga mo‘ljallangan, kafesidayam keksalar bormi, yo‘qmi... taomlari ham quruq nonu xurush emasmikan? Yana... charchab qolishi turgan gap, bularga ortiqcha tashvish bo‘lib... Xayolidan shu gaplar o‘tgan ona o‘ziga tikilib turgan qizlariga ohista javob qildi:

— Mayli, sizlar bolalarni aylantirib kelaveringlar. Men uyda bo‘laman. Qaytib kelasizlarmi?

— Ko‘ramiz, vaqtga qaraymiz... — haligina onaning bag‘rini va uyini to‘ldirib kirib kelgan qizlaru nabiralar shodu xurram tarzda sayrga jo‘nab ketdi...



Yozganlarim shunchaki to‘qima hikoya emas, ularni o‘ylab topmadim; balki hayotda o‘z ko‘zim bilan ko‘rganlarimdan ayrim lavhalarni shundoqqina qog‘ozga tushirdim, xolos. Toki tirik ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda, shuurimizda chiroqdek yonib turguvchi mavzu-masala — onamiz oldidagi burchimiz haqida hadisi sharifda aytilgan nasihatlardan orttirib, yana nima ham deyish mumkin?

* * *

Yozganlarim shunchaki to‘qima hikoya emas, ularni o‘ylab topmadim; balki hayotda o‘z ko‘zim bilan ko‘rganlarimdan ayrim lavhalarni shundoqqina qog‘ozga tushirdim, xolos. Toki tirik ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda, shuurimizda chiroqdek yonib turguvchi mavzu-masala — onamiz oldidagi burchimiz haqida hadisi sharifda aytilgan nasihatlardan orttirib, yana nima ham deyish mumkin?

Onalik, nazdimda, mukammal ta’rifdir. Uning oldiga turli aniqlovchi va izohlovchi so‘zlar qo‘shish darkor emas. Hadis hikmati onalik sharafi nasib etgan barcha munisalarga birdek taalluqlidir.

Farzandini to‘qqiz oy vujudida ko‘tarib yurib, bu davrning og‘irliklari va qiyinchiliklarini sabru bardosh bilan yenggan onalarga — eng birinchi yaxshilik! Misoli ikki olam o‘rtasida turib, jonidan yulinib tushguvchi go‘dagini dunyoga keltirgan onalarga — ikkinchi yaxshilik! To‘qqiz oy davomida yegan-ichganlarini yuragi ostida urgan mitti yurakcha bilan bo‘lishgan, tug‘uruq jarayonlarida qon yo‘qotish va jismoniy dardu og‘riqlardan borlig‘i hilvirab qolganiga qaramay, yegan taomini oq sut qilib, yana chaqalog‘ining og‘ziga tutgan onalarga — uchinchi yaxshilik!

Mulohaza

ZAMONAVIYLIK VA MILLIYLIK MUROSASI

Har bir millatning betakror qiyofasi, ma’naviy olami va hayot falsafasi, shubhasiz, uning milliy qadriyatlarida namoyon bo‘ladi. Xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini o‘zaro bog‘lab turuvchi bu bebaho meros avlodlarni bir-biriga payvandlovchi, tarbiya mezonlarini aks ettiruvchi ma’naviy ko‘prikdir.

Shu ko‘prik bugungi shiddatli globallashuv zamonida yoshlarimizni turli yot g‘oyalardan asrash, ongu shuurida milliy o‘zlik va zamonaviy hayot talablarini uyg‘unlashtirishda bosh mezonga aylandi. Chunonchi, bugungi tezkor axborot asrida o‘sib kelayotgan yosh avlod dunyoqarashi shakllanishiga oila, maktab va mahalla bilan birga internet va ijtimoiy tarmoqlar ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hatto balog‘at yoshiga yetmagan o‘g‘il-qizlar olis mamlakatlarda yuz berayotgan voqea-hodisalardan soniyalar ichida xabardor bo‘lib, ba’zan milliy mentalitetimizga mutlaqo yot turli trendlarni o‘zlashtirish payiga tushib qolmoqda. Asl mohiyati anglanmagan, yaxshi va yomon jihatlari saralanmay, zamonaviylik niqobi ostida qabul qilinayotgan bu kabi illatlar kelajak avlodning milliy o‘zligi va qiyofasini yo‘qotib qo‘yishiga sabab bo‘lmaydimi? Shiddatli globallashuv jarayonida ajdodlardan meros qadriyatlarni saqlab, zamonaviy hayot sur’atlarini yoshlar ongi va nigohida qanday uyg‘unlashtirish mumkin?

* * *

— Milliy qadriyatlarimizni yoshlar ongi va qalbiga singdirish, avvalo, oila bag‘ridan boshlanadi, — deydi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, professor Farida Abdurahimova. — Bu ma’naviy mezonlarni zamon talablariga uyg‘unlashtirish uchun esa oiladagi muloqot muhitini ijobiy tomonga o‘zgartirishimiz shart. Xo‘sh, bunga qanday erishiladi? Eng avvalo, farzandlarimiz bilan tillashayotganda yoki ularga biror vazifani topshirayotganda an’anaviy buyruq va taqiq tizimidan



Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

* * *

Milliy qadriyatlarimiz haqida gap ketganda, ko‘pincha ko‘z oldimizga milliy liboslarimiz, hashamatli to‘y-tantanalar, turli marosim va bayramlar keladi. Bular o‘zbekona madaniyatimizning shunchaki tashqi ko‘rinishi, o‘ziga xos qiyofasi, xolos. Uning ichki mazmun-mohiyati, falsafasi va qamrovi esa benihoya keng.

“Aslida, milliy qadriyatlarimiz yo‘qolib ketayotgani yo‘q, faqatgina ularning namoyon bo‘lish shakli va formatlari o‘zgarmoqda. Ota-onalarning farzandlariga “Biz yoshligimizda sabrli, aqlli edik, noshukurlik qilmasdik”, deb tinmay dashnom berishi ularni tarbiyalash va ishontirish uchun yetarli emas.



samimiy muloqot usuliga o‘tishimiz kerak. Zotan, milliylik va zamonaviylik tushunchalarini kelajak avlod qalbida muvozanatga keltirish bugunning g‘oyat dolzarb masalasi bo‘lib turibdi. Ammo uning mohiyatiga faqatgina xavf va xavotir nuqtai nazaridan yondashish biryoqlama qarash bo‘ladi. Chunki globallashayotgan dunyo bilan integratsiyalashuvning o‘zi insonni o‘zligidan ayirmaydi. Aksincha, o‘z tarixi, tili va madaniyatini puxta bilgan yigit-qizlar boshqa xalqlarning ilg‘or tajribalarini ham xolis va to‘g‘ri qabul qila oladi.

Buning uchun ota-onalar farzandlari bilan doimiy va bevosita muloqotda bo‘lib, ma’naviy olamini muntazam oziqlantirishi lozim. Eng muhimi, kattalar o‘zaro munosabati hamda yurish-turishi bilan farzandga hayotiy namuna bo‘lishi shart. Shu bilan birga, bola bilan dildan suhbatlashish, shaxsiy fikrini tinglash, so‘ngra urf-odatlarimizning nozik jihatlarini, qadriyatlarimiz mazmun-mohiyatini tushunarli tilda anglatish zarur. Ushbu jarayonda hayotiy misollar, xalq maqollari va donishmandlar hikmatlaridan unumli foydalanish kutilgan natijani beradi.

— Milliy o‘zligimizni o‘sib kelayotgan avlodga bezavol yetkazish usullarini tubdan yangilash zarur, — deydi psixolog Barno Karimova. — Kelajagimiz vorislariga uzundan uzun, zerikarli nasihatlardan ko‘ra yuqori did bilan suratga olingan qisqa metrajli filmlar, ularni qiziqtiradigan dolzarb mavzudagi podkastlar, ta’sirli intervyular hamda hayotiy hikoyalar ko‘proq ta’sir qiladi. Agar virtual makonda milliy adabiyot, musiqa, tarix, me’morlik, folklor va amaliy san’at yo‘nalishlarida sifatli, zamonaviy kontent ko‘paysa, internet olami milliy madaniyatimizga raqib emas, aksincha, uni dunyoga tanituvchi targ‘ibot maydoniga aylanadi.

Virtual olamda o‘zgani haqorat qilmaslik, yolg‘on ma’lumot tarqatmaslik, birovning mualliflik huquqini o‘zlashtirmaslik, ya’ni plagiatga yo‘l qo‘ymaslik ham bugungi kunning yuksak odob mezonlaridan. Aslida, milliy qadriyatlarimiz yo‘qolib ketayotgani yo‘q, faqatgina ularning namoyon bo‘lish shakli va formatlari o‘zgarmoqda. Ota-onalarning farzandlariga “Biz yoshligimizda sabrli, aqlli edik, noshukurlik qilmasdik”, deb tinmay dashnom berishi ularni tarbiyalash va ishontirish uchun yetarli emas.

Agar farzandlar oilada ota-onasining qo‘lida muntazam kitob ko‘rsa, ularga kitobxonlikning ahamiyati haqida uzun nasihatlar qilishga hojat qolmaydi. Xuddi shuningdek, hovlisidagi chog‘roqqina tomorqada yaqinlari, jigarlari bilan yelkadosh bo‘lib mehnat qilgan bola ulg‘aygach, jismoniy mehnatni majburiyat emas, hayotning tabiiy va go‘zal bir qismi sifatida qabul qiladi. Bu oila bag‘rida boshlanib, ta’lim maskanlari va jamiyat muhitida izchil davom etadigan uzluksiz jarayondir.

Dunyodagi ilg‘or davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yuksak taraqqiyot hech qachon milliy madaniyatni inkor etish hisobiga yuz bermaganiga guvoh bo‘lamiz. Aksincha, ko‘plab rivojlangan mamlakatlar o‘z ona tili, tarixi, milliy dizayni, musiqasi va pazandalik san’atini zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas, daromad keltiruvchi bir qismiga aylantira olgan.

Mamlakatimizda ham bu borada ulkan imkoniyat va beqiyos madaniy meros mavjud. Milliy matolarimizni zamonaviy kiyimlar dizayniga moslashtirish, mumtoz kuy-qo‘shiqlarimizni yangicha va jozibali aranjirovkada yangratish, tarixiy va badiiy filmlar orqali yosh avlod qalbida ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini yuksaltirish qadriyatlarimizning bezavol yashashida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda asosiy maqsad va mezon bitta — milliyligimizning mazmun-mohiyatini qat’iy saqlagan holda unga yangicha shakl va joziba bag‘ishlashdir.

Yoshlarimizning dunyo tillarini mukammal egallashi, nufuzli oliygohlarda tahsil olib, yirik xalqaro kompaniyalarda yuqori lavozimlarni egallashi oddiy voqelikka aylandi. Ammo eng muhimi, ular qaysi qit’a yoki mamlakatda bo‘lmasin, o‘z ona tili, e’tiqodi, tarixi va milliy qadriyatlarini qalblarida sof saqlay olsin. Ongu shuurimizda milliy o‘zlik barqaror ekan, har qanday zamonaviylik millat tanasiga tahdid emas, balki uning dunyo miqyosida bo‘y ko‘rsatishiga xizmat qiluvchi kuchga aylanadi. Shu bilan birga, farzandlarimiz va nabiralarimizni yurt tuprog‘ini muqaddas deb biladigan, ona tilini e’zozlaydigan, o‘z tarixidan faxrlanadigan toza ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Zero, milliy qadriyatlar va zamonaviy hayot tarzini ajdodlar merosi hamda zamonaviy tafakkur bilan boyitish ularni yangi davr talablariga moslab yuksaltirish demakdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1146.
29189 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60